Buglarning elastikligi yonilgidagi yengil fraksiyalarning mikdoriga boglik. Yengil fraksiyalar kancha kup bulsa, buglarning elastikligi shuncha katta buladi. Buglarning bosimi ma'lum kiymatga ega bulishi lozim. Ayrim sabablarga kura bu bosim atmosfera bosimiga teng yoki undan katta bulsa (0,667 kPa -- 0,933 kPa), yonilgi turubkalarida bug tikini xosil bulishi mumkin va natijada dvigatelni yurgizib yuborishi kiyinlashadi.

Benzinning zichligi kancha katta bulsa, uning sirt tarangligi shuncha katta buladi. Demak, bunday Yonilg'ining xavo okimi ta'sirida parchalanishi (tomchilar katta buladi) va buglanishi yemon buladi. Natijada kerakli tarkibdagi yonuvchi aralashma olib bulmaydi.

Yonilg'ining buglanish jarayoni buglanish issikligi bilan belgilanadi. Masalan, 1 kg benzinni buglatish uchun 315 kJ\ kg yoki 75 kkal\kg mikdorda issiklik kerak. Buglanish issikligi kancha katta bulsa, buglanish jarayoni shuncha kiyin boradi.

Xavoning issiklik vaktida benzinda bo'lgan yengil uglevodorodlar buglana boshlaydi, shuning uchun ta'minlash sistemasida bug tikinlari xosil bulishingining oldini olish maksadida xamma benzinlarda xam bir xil, ya'ni parchalanish chegarasi $+35^{\circ}$ S dan yukori bulishi kerak.

Yonilg'ining parlanuvchanligi uning fraksion tarkibiga boglik, uni aniklash tartibi labarotoriya darsida utiladi.

Yonish jarayoniga ta'sir kiluvchi asosiy faktorlar; Yonilg'inining ximiyaviy tarkibi, Yonilg'i-xavo aralashmasi, bosim, xarorat va yonishga ketgan vaktlar xisoblanadi.

Normal xolatda issiklik va alanga asta-sekinlik bilan tarkaladi, tezligi 25—40 m/s da 0,003 0,005 sek ichida tuligicha yonishi kerak ammo, karbyurotorli dvigatellarda ba'zan takillagan tovushlar eshitiladi. Bu xodisa dvigatellarning sikish darajasiga mos bulmagan benzin ishlatilganda sodir buladi.

Yonilg'i-xavo aralashmasi yonishidan ajralib chikadigan issiklik mikdori Yonilg'inining yonish issikligi va aralashma tarkibiga boglik. Yonilg'inining yonish issikligi kanchalik yukori bulsa, kuvvat va ish birligiga to'g'ri keladigan Yonilg'i sarfi shunchalik kam buladi.

Yonilg'i-xavo aralashmasining yonish issikligi kuyidagi ifoda yordamida xisoblanadi.

$$Q_{yo.x.a.} = Q_p \cdot n_{yo} / (1 + \alpha \cdot L_{n.x.})$$

bu yerda Q_p — Yonilg'inining past solishtirma issikligi, kDj/kg;

n_{yo} — Yonilg'inining tula yonish koefitsiyenti;

α - xavoning ortikchilik koefitsiyenti;

$L_{n.x.}$ - 1 kg Yonilg'ini tula yonishi uchun kerakli xavoning nazariy mikdori.

Jadval 3.1.

Yonilg'inining va Yonilg'i-xavo aralashmasining yonish issikligi

№	Yonilg'i turi	Yonish issikligi (kJ/kg)		Xavoning nazariy mikdori
		Yonilg'i	Yonilg'i-xavo aralashmasi	
1	Benzin			
	a) aviatsion benzин	44380	2788	14,9
	b) avtomobil benzini	43961	2780	14,8
2	Kerosin	42915	2767	14,5
3	Dizel Yonilg'isi	49705	2771	14,4
4	Etil spiriti (96%)	25958	2763	8,4
5	Benzol	39356	2771	13,2

Ichki yonuv dvigatellari oddiy ekspluatatsion sharoitda biroz suyultirilgan ishchi aralashmada ($\alpha = 1,05 \dots 1,15$) ishlab, uning tejamli ish tartibini ta'minlaydi. Vaktinchalik yuklama oshganda esa, kiska vakt kuyultirilgan ($\alpha = 1,90 \dots 0,95$) ishchi aralashmada ishlaydi, bu xolda Yonilg'ini tula yonmasligi sababli Yonilg'i biroz ortikcha sarflanadi.

3.3. Yonilg'inining normal va detonatsion yonishi, unga ta'sir kiluvchi faktorlar

Dvigatelning texnik-iktisodiy kursatkichlari silindrda Yonilg'ini yonish jarayonini takomillashishiga boglik. Normal yonishda sikish taktining oxirida

Yonilg‘ining bir kismi alangalanib, alanga frontini siljishi ishchi aralashmaning issiklik utkazuvchanligi, issiklik uzatish va nur tarkatish xisobiga kengayib boradi.

Yonish natijasida bosim ortadi va aralashmaning yonmagan kismi alanga oldida siljib boradi. Yonish tezligining maksimal kiymati xavoning ortikchalik koeffitsiyentiga to‘g‘ri keladi. Alanga frontining tarkalish tezligi $25\dots40 \text{ m/s}$ aralashmaning bosimi va xaroratini oshishi bilan (xarorat $400\dots450^0 \text{ S}$ ga kutarilganda) yanada ortib boradi.

Dvigatel silindrida aralashma normal yonganda bosim bir tekisda oshib boradi, ammo bosim va xarorat oshishi bilan normal yonish tartibi buzilib detonatsion (portlab) yonishga utishi mumkin.

Yonilg‘ini detonatsion (portlashsimon) yonishidan uning bir kismi yonishga ulgura olmaydi va chikarish kuvuridan kora tutun chikishiga sabab buladi. Kizdirilgan gazlarning yonish kameralari devorlariga urilishi natijasida issiklik tarkatish kuchayadi, bu esa dvigateli kizishiga va uning kuvvatini pasayishiga sabab buladi. Dvigatel notekis ishlaydi, porshen, klapanlar va porshen xalkalari kuyadi, silindr-porshen guruxi detallari, xamda tirsakli val podshipnkilarining vkladishlarini yeylimishi tezlashadi.

Detonatsiyali yonish jarayonida alanga fronti oldida yonmay kolgan ishchi aralashmalari sikilib, uning xarorati kutariladi.

Natijada yonilgi malekulalarida ximik oksidlanish reaksiyasi sodir bulib «peroksid» birikmalar xosil buladi. Yetarli darajada yukori xarorat va bosimga ega bo‘lgan bu birikmalar alanga yetib kelmasdan uz-uzidan yenib ketadi.

Bunday xarakterda boshlangan yonish jarayoni juda katta tezlik bilan ish aralashmasining kushni katlamlariga tarkaladi va bu katlamlarda xam betartib yonish boshlanadi. Bunday yonish jarayonida xosil bo‘lgan zarbiy tulkinlar juda katta tezlik bilan butun yonish kamerasi buylab tarkaladi va devorlardan kaytib, takillagan tovushlar paydo buladi. Zerb tulkinlari ximik reaksiya endigina tugayetgan zonalarga ta’sir kilib, detonatsiyali portlashlar xosil kiladi. Bunday detonatsiyali tulkinlarning tarkash tezligi $1500\dots2500 \text{ m} \backslash \text{s}$ gacha yetadi.

Detonatsiyaning paydo bulishiga kuyidagi faktorlar ta’sir kiladi.

1. Sikish darajasi.
2. Yonish kamerasining shakli va yendirish svechalarining joylashuvi.
3. Silindrlar soni va ulchami.
4. Porshen va silindrlar kopkogining materiali.
5. Ishchi aralashmaning tarkibi.
6. Aylanishlar soni.
7. Yendirishning ilgarilash burchagi.
8. Kurum xosil bulishi.
9. Dvigateli sovitish.
10. Xavoning namligi va bosimi

Yonilg‘ining detonatsiyali yonishga chidamliligi kuyidagicha aniklanadi.

$$\text{OCH} = 125,4 - 413 \backslash \text{YE} + 0,183 \text{ D}$$

bu yerda.

O - CH -detonatsiyaga chidamliligi yoki okton soni
 YE - sikish darajasi
 D - silindr diametri, mm.

3.4. Benzinlarning detonatsiyaga karshi turgunligini oshirish usullari

Benzinlarning detonatsiyasiz ishlashini ta'minlash maksadida ularning tarkibiga antideetonatorlar kushiladi.

Eng kup ishlatiladigani tetraetilsvinets $R_6(S_2N_5)_4$ xisoblanib, kuyuk rangsiz suyuklik, zichligi $\gamma = 1,659$ ga teng, benzinda tez eruvchan, suvda erimaydi, ammo zaxarlovchi modda xisoblanadi. Uning ta'siri kuyidagicha mis dioksidi R_6O_2 xosil buladigan uglerod peryokislari bilan kushilib uning reaksiyalanish zanjirini uzadi, natijada oksidlanish yukoladi.

Ammo, yonish natijasida yonish kamerasidan mis tuligicha chikib ketmasligi sababli dvigatelning ishlashiga asta-sekinlik bilan ta'sir kursatishi mumkin. Buning oldini olish uchun unga brom va xromli suyuklik kushiladi. Natijada etil suyukligi xosil buladi. Shuningdek benzinga etil suyukligi kushilgan yoki kushilmaganligini bilish maksadida rang beruvchi moddalar kushiladi. Keyingi vaktlarda antideetonatorlar sifatida misning yana bir kushilmasi tetrametilsvinetsdan foydalanilmokda.

Etil suyukliklari kushilgan benzinlar zaxarli bo'lganligi sababli texnika xavfsizligi koidalariga kat'iy rioya kilinishi zarur.

Benzinlarning bir tekis yonishi asosan uning oktan soniga boglik buladi.

Oktan soni uning tarkibida kancha foiz xisobida izooktan va N - gepton borligini bildiradi.

Masalan, A -76 markadagi benzin tarkibida 76% izookton ($S_8 N_{18}$) va 24% N-geptan ($S_7 N_{16}$) dan tashkil topgan.

Benzinlarning oktan soni tajriba va motor uslubida aniklanadi. Motor usulida aniklanganda bir silindrli dvigatel ishlatilib standart rejimidан asta-sekinlik bilan tekshiriladigan benzinga utkaziladi. Keyin ishlab turgan dvigatelning sikish darajasi uzgartirilib boriladi.

Kaysi xolatga kelganda dvigatel detonatsiya bilan ishlay boshlasa, shu xolatda ishchi aralashma aniklanib, etalon benzin bilan solishtiriladi va oktan soni aniklanadi.

Agarda oktan soni tajriba natijasida aniklangan bulsa, «I» xarfi kuyiladi. Masalan AI -93.

3.5. Benzinning yonish jarayoniga ta'sir kiluvchi omillar

Benzinlarning yonish jarayoniga ta'sir kiluvchi asosiy konstruktiv va ekspluatatsion omillarga kuyidagilar kiradi.

1. Sikish darajasini oshirish.

Bunday dvigatelning solishtirma massasi kamayadi, literli kuvvati oshadi, ammo sikish darajasining kiymati, YE=10... 12 dan oshmasligi kerak.

Sababi termik f.i.k oshadi, dvigatelning narxi kimmatlashadi, okton soni katta bo‘lgan Yonilg‘idan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

2. Nadduvdan foydalanish.

Karbyurotorli dvigatellarda nadduvdan foydalanish yaxshi natija bermaydi, sababi yuklama tez-tez uzgarib turadi va bir rejimdan ikkinchi ishchi rejimga utishida ishchi aralashmaning tarkibi kambagallahib dvigatel bir tekis ishlamaydi.

3. Porshen diametri va uning materiali, tirsakli valning aylanishlar soni, dvigatelga berilgan yuklama, KSHM va Gaz taksimlash mexanizmlarining xolati va boshkalar kiradi.

3.6. Benzinlarning turlari va markalari

Benzinlar xar xil turdag'i neftlarni kayta ishslash texnologiyalari natijasida olingan aralashma bulib, DAST 2084-77 ga asosan turt markada ishlab chikariladi: bular A-72, A-76, AI-93 va AI-98. Bu benzinlar (A-72 dan tashkari) ikki variantda ishlab chikariladi – davlat sifat belgisi bilan va oddiy markada. Bundan tashkari maxsus texnik shartlar asosida «Ekstra» benzini ishlab chikariladi. A-72 va «Ekstra» va sifat belgili benzinlardan boshkalari etillangan va buyalgan, rang berilgan buladi.

Dvigatellarning ekspluatatsiya sharoitiga karab avtomobil benzinlari AI-98 markadan tashkari, yozgi va kishki navga bulinadi.

Benzinlarning markalari va asosiy kursatkichlari

Kursatkichlar	Benzinlar markasi buyicha kursatkichlar mikdori						
	A-72	A-76 sifat kursat gich bel gisi	A-76	AI-93 sifat kursat gich bel gisi	AI-93	AI-93 sifat kursat gich bel gisi	AI-98
1	2	3	4	5	6	7	8

Detonatsiyaga turgunligi O CH M O CH M G/Kg benzinda gi kurgoshin massasi, kup emas Etillanganda Etillanmagan da Fraksiya tarki bi temperatu ra, $^{\circ}$ S kaynash boshlanishi, kam emas yozgi kishki 10% benzinni kaynashi kup emas yozgi kishki 50% benzinni kaynashi kup emas yozgi kishki 90% benzinni kaynashi kup emas yozgi kishki kaynash oxiri da, kup emas yozgi kishki Idishdag'i koldik % kup emas Koldik va yukotilishi % kup emas Benzinni tuyingan bug larini bosi mi %, kPa (mm. rt.st.) yozgi kup emas	72 norma tar	76 lanma kibida	76 gan yuk	85 93 -	85 93 0,50	89 98 -	89 98 0,50
50% benzinni kaynashi kup emas yozgi kishki	70 55	70 55	70 55	70 55	70 55	70 55	70 55
90% benzinni kaynashi kup emas yozgi kishki	115 100	115 100	115 100	115 100	115 100	115 100	115 100
kaynash oxiri da, kup emas yozgi kishki	180 160	180 160	180 160	180 160	180 160	180 -	180 -
Idishdag'i koldik % kup emas Koldik va yukotilishi % kup emas	195 185	195 185	195 185	205 195	195 185	195 -	195 -
Benzinni tuyingan bug larini bosi mi %, kPa (mm. rt.st.) yozgi kup emas	1,5 4,0	1,5 4,0	1,5 4,0	1,5 4,0	1,5 4,0	1,5 3,5	1,5 4,0
Kishki	66,661 (500) 66,661 93,375 (500...700)	66,661 (500) 66,661 93,375 (500...700)	66,661 (500) 66,661 93,375 (500...700)	66,661 (500) -	66,661 (500) -	66,661 (500) -	66,661 (500) -

1	2	3	4	5	6	7	8

100 ml benzindagi kislota, KON. mikdori kup emas 100 m ³ benzindagi xakikiy kukun di konsentra siya, mg. kup emas	3,0	1,0	3,0	0,8	3,0	1,0	3,0
Ishlab chika rish joyidan iste'mol kilish joyida	5	3	5	-	5	3	5
Benzinni ishlab chika rish joyidagi indeksion davr kup emas, min	10	8	10	2	7	5	7
Oltингugurtni massasadagi mikdori	600	1200	900	1200	900	1300	900
Mis plastin kada tekshirish	0,12	0,02	0,10	0,01	0,10	0,05	0,10
Suvda eriy digan kislota va ishkorlarni mikdori	tarki	bida	bul	may	di		
Mexanik ku- shimcha va suv rangi	tarki	bida	bul	may	di		
-	-	sarik	-	kizil	-		kuk

Benzinning yozgi navlari shimoliy va shimoliy-sharkiy rayonlardan tashkari barcha rayonlarda 1 apreldan 1-oktabrgacha, janubiy rayonlarda esa yil davomida ishlatiladi. Kishki navlari esa shimoliy va shimoliy-sharkiy rayonlarda – yil davomida, boshka rayonlarda esa 1 oktabrdan 1 aprelgacha ishlatiladi.

Benzinlarning markalari va asosiy kursatkichlari 3.2-jadvalda keltirilgan.

Karbyuratorli dvigatellarning ishlash muddatini oshirish uchun faktgina belgilangan markadagi benzinni ishlatish kerak. Belgilangan markada past oktan sonli benzin ishlatilganda dvigatel detonatsiya bilan ishlaydi, natijada kistirmalar (prokladka) kuyishi, KSHM detallari tez yejilishi, kuvvat pasayishi, benzin sarfi oshishiga olib keladi.

Belgilangan markadan baland okton sonili benzin ishlatilganda avtomobilga ketgan xarajat oshadi, ya'ni ishlatilgan benzinning narxi baland buladi, xamda chikorish jarayonida xarorat yukori bo'lganligi sababli klapanlar kuyishi mumkin.

3.7 Benzinlarning zanglatish va chukindilar xosil kilish xususiyatlari

Karbyuratorli dvigatellarning ishlatalishi davomida foydalanilayot-gan Yonilg‘ilarning sifatiga karab ta’minlash sistemasi detallari va yonish kamerasi kismlarida smolali moddalarning tarkibidan xosil bo‘lgan chukindilar paydo bulishi mumkin.

Asosan, Yonilg‘i bakida, filtrlarda, karbyuratorlarda bular yumshok kurinishda, chikarish patrubkasida, klapanlar sterjenida esa issiklik ta’sirida kattik kurinishda bulib, xatto klapanlarning ochilib - yepilishiga xam ta’sir kilishi mumkin. Yonish kamerasi, porshenlar ustida bunday chukindilar issiklik ta’sirida nagar (kurumga) aylanadi. Bularning xammasi dvigatelning bir tekis ishlashiga salbiy ta’sir kursatadi, uning kuvvati pasayadi.

Shuning uchun benzinlarda oksidlovchi smolalar mikdori $7\ldots10 \text{ mg}/100 \text{ ml}$. atrofida bulishi kerak.

Benzinlarning uz sifatini uzok vakt saklab turishiga ularning saklanish va tashish sharoiti xam katta ta’sir kursatadi. Saklash davomida oksidlanishni kamaytirish uchun rezervuar (idish) larni tashki tamonini ochik rangga buyaash kerak, doimo tulik xolda saklash zarur.

Smolali chukundilarni kamaytirish maksadida benzingga yuzdan yoki mingdan bir kisimda oksidlanishga karshi moddalar yoki stabilizatorlar kushiladi.

Bunga asosan fenol aralashmasi FG – 16, peroooksidi fenilamin, gidroxinal kabilar kiradi.

Benzinning tarkibida metallarni karroziyalovchi (zanglatuvchi) moddalarning bulishi dvigatelga juda xam katta zarar yetkazadi. Korroziyalovchi moddalar benzin tarkibidan tozalangandan keyin kolishi mumkin bo‘lgan eruvchan kislota va ishkorlar, organik kislotalar, naften, oltingurgut kushilmalari, suvlar bulishi mumkin. Bu moddalar fakatgina dvigatelni ishlatganda zarar yetkazmasdan, saklashda, tashish vaktida xam metallarga ta’sir kilishi mumkin. Suvda eriydigan kislotalar metalga, ishkorlar esa alyuminiyga katta ta’sir kursatib, zanglatib metallarni yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Organik kislotalar bulishi benzin tarkibida kancha ishkor KON (mg) borligi bilan belgilanadi.

Bu birlik asosan $3 \text{ mg KON}/100 \text{ ml}$ atrofida bulishi kerak. Oltingurgutli kushilmalar sulfid, tiofinlar metalga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir kilmaydi, ammo yonish natijasida SO_2 , SO_3 angidridlar xosil kiladi, natijada detallarni kuchli korroziyanishiga olib keladi. Shuning uchun avtomobil benzinlarida bu moddalar mikdori $0,1\ldots0,12\%$ dan oshmasligi kerak. Benzinning tarkibida suvning bulishi xam zararli. Suv metallarni zanglatib kolmasdan, kish vaktida yaxlab kolib yonilgi naychalaridan Yonilg‘ining utishini xam kiyinlashtiradi.

Suvda eruvchi kislota va ishkorlarning benzindagi mikdorni, xamda oltingurgut kushilmalarining borligini aniklash labaratoriya darslarida bajariladi.

Bundan tashkari benzin tarkibida mexanik zarrachalar bulishi xam zararli, sababi ishlash davomida karbyurator jiklyorlarining teshiklari berkitib kuyishi mumkin.

3.7. Benzin-suv emulsiyalari va boshka turdag'i Yonilg'ilardan foydalanish

Texnika rivojlanishi natijasida dvigatellarni ishlashini yaxshilash, sovutish sistemasini optimal xolatda saklash, detonatsiya bilan ishlashni, Yonilg'i sarfini, yongandan keyin atmosferaga chikarilib yuboriladigan zaxarli gazlarning mikdorini kamaytirish asosiy muammolardan xisoblanadi. Bu masalalarning ba'zi birlarini xal kilishning asosiy yollaridan biri suv-benzin emulsiyasidan foydalanish, xamda vodoroddan foydalanishdir. Suv benzin emulsiyasini 3:1 tarkibida foydalanish, ya'ni 10...13% suv kolgan kismi penol va benzin, yoki 10...14% suv kolGANI benzindan foydalanish yullari tajriba kilib kurilgan. Suv benzin emulsiyasidan foydalanilganda silindr porshen guruxining yejilishi kamayishi, f.i.k oshishi, benzinning okton soniga talab kamayishi, atmosferaga chikayetgan gazlar tarkibida azot oksidi kushilmalari kamayishi mumkin.

Vodorod eng yaxshi avtomobil Yonilg'isi xisoblanadi, yongandan keyin fakatgina suv xosil buladi xolos.

Vodorod oddiy xolatda zichligi $9 \cdot 10^{-5} \text{ g/sm}^3$ bo'lgan yengil gaz xisoblanadi. Agarda vodorod - 253^0S ga sovutsa rangsiz zichligi $70,8 \text{ kg/m}^3$ ga teng suyuklikga aylanadi.

Issiklik berish kobilyati 28700 kkal/kg bulib, benzinga karaganda 2,8 marta yukori. Agarda benzin aralashmasiga 5% vodorod kushilsa uning sarfi 25...30% ga kamayadi, dvigatel kuvvati 20...40% ga kupayadi. Ammo, ba'zi bir sabablarga asoslanib vodoroddan foydalanish muammo bulib kolmokda.

Ogirligi 80 kg bo'lgan oddiy gaz baloniga 14,7 MPa bosim ostida xammasi bulib 500 gramm sikelgan vodorod joylashtirish mumkin, u esa avtomobil 5...8km yul bosib utishiga yetadi xalos.

Suyuk vodorodning zichligi katta, ammo uni saklash uchun juda xam katta idish bulishi kerak..

Masalan, 20 kg suyuk vodorodni saklash uchun 250 litrlik bak kerak buladi.

Shuning uchun, vodorodni benzinda eritib ishlatish mumkin. Buning uchun 15...20 Mpa ostida 1 litr benzinda 140...190l vodorod erilib ishlatilsa buladi, detonatsiya bilan ishlash 15...17 marta kamayadi.

Nazorat savollari:

1. Benzinlarga kanday talablar kuyiladi?
2. Yonilg'i aralashmaning yonish issikligi nima?
3. Yonilg'ining normal va detonatsiyali yonishi kanday sodir buladi?
4. Detonatsiyani sodir bulishiga kanday faktorlar ta'sir kursatadi?
5. Benzinlarning detonatsiyaga karshiligi kanday oshiriladi?

6. Oktan soni nima va u kanday aniklanadi?
7. Benzinlarning turlari va markalarini aytib bering?
8. Benzinlarning kanday xususiyatlarini bilasiz?
9. Benzin-suv emulsiyasi va boshka turdag'i Yonilg'ilar to'g'risida tushuncha bering?
10. Yonilg'ining oktan soni kanday aniklanadi?

Ma'ruza 4

Mavzu: Dizel dvigatellari uchun Yonilg'idan foydalanish va ularning ekspluatatsion xossalari

Reja:

1. Dizel dvigatellarida ishlataladigan Yonilg'ilarga kuyiladigan talablar.
2. Dizel dvigatellarida yonilgini berilishi va yonish jarayoni.
3. Yonilg'ining uz-uzidan alanganishini baxolash.
4. Yonuvchi aralashma xosil kilish va unga ta'sir kiluvchi faktorlar.
5. Dizel yonilg'ilarining xususiyatlari, korroziyalash, kurum xosil ilish.
6. Dizel yonilg'ilarining turlari va markalari.
7. Motor yonilg'iliari turlari va markalari.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 14.

Tayanch iboralar: dizel dvigatellari, yonilg'i, yonish, aralashma, alanganish, faktor, korroziya, kurum, motor yonilg'isi, markalari.

4.1. Dizel dvigatellarida ishlataladigan yonilg'ilarga kuyiladigan talablar


Dizel dvigatellari arzon narxdagi yonilg'ida ishlatalishi, yongin xavfi kamligi, uzok vakt ishonchli va remontsiz ishlatalishi, ish rejimlarida kizimasdan bir tekis ishlashi bilan korbyuratorli dvigatellarga karaganda afzallikkleri ega. Shuningdek ularni 15...20 ga cha sikilish darajasida ishlatalish mumkin, solishtirma yonilgi sarfi karbyuratorli dvigatelda 83...94g/MDJ bulsa, dizellarda esa 64...74 g/MDJ-ni tashkil etadi.

Dizel yonilg'ilariga kuyidagi texnik va iktisodiy talablar kuyiladi

1. Yaxshi ishchi aralashma tayerlanishi va bir tekis alanganishi.
2. Ma'lum mikdorda yepishkoklikka ega bulishi.
3. Xar-xil xaroratlarda bir tekis okuvchanlik xususiyatiga ega bulishi.
4. Tarkibida oltingugurt aralashmalari, suvda eriydigan kislota va ishkorlar, suv va mexanik zarrachalar bulmasligi kerak.

4.2. Dizel dvigatellarida yonilgini berilishi va yonish jarayoni

Dizel dvigatellarining ta'minlash sistemasida Yonilg'ining berilishi kuyidagicha amalga oshiriladi.



4.1-rasm. Dizelda yonilgining xarakati

1-mayin tozalagich (filtr); 2-xavo tozalagich; 3-trubka; 4-forsunka; 5-yonish kamerasi;
6-glushitel; 7-kuyish ogizi; 8-bak; 9-dagal tozalagich; 10-pompa; 11-nasos

Yonilg'i tindirgach, yonilg'i baki 8 ga urnatilgan mayda setka 7 dan kuyiladi. Bakdan surish pompasi yordamida Yonilg'i dastavval dagal tozalagich filtr 9 ga keyin mayin tozalash Filtri 1 ga utib, kaytadan mayda mexanik zarrachalar va asfalt-smola moddalaridan tozalanadi. Filtrlangan yonilg'i yonilgi nasosi 2 ga tushadi va katta bosim ostida trubalar 3 orkali forsunkalar 4 ga suriladi. Forsunkalar ma'lum yonish burchagi va bosim ostida yonilg'ini mayda 0,003...0,150 mm li tomchilar kurinishida silindrлarning sikilgan xavo yigilgan yonish kamerasi 5 ga purkaydi. Xavo, silindrлarga xavo tozalagich 2 orkali mexanik zarrachalardan tozalangan xolda beriladi. Turt taktsi dizel dvigatellarida ishchi jarayon shunday utadiki, birinchi taktda (surish taktida) silindrغا yaxshi tozalangan xavo kirib ikkinchi taktda (sikish taktida) sikiladi. U vaktida ishchi kameradagi bosim 3,4...4,4 MPa ga, xarorat esa 600⁰...900⁰ S gacha kutariladi.

Porshen yukori chetki nuktaga yetib kelishidan oldin tirsakli valni 14⁰...280⁰ burilishida sikilgan xavoli Yonilg'i kamerasiga Yonilg'i purkay boshlanadi. Kameradagi sikilgan xavoning bosimi 2...5 MPa, xarorat 600⁰...700⁰ S buladi. Yonilg'ini purkash porshen yukori chetki nuktadan kaytganidan keyin, tirsakli valni 6⁰...12⁰ burilishida tugaydi. Bu davrda Yonilg'i xavo bilan tezda aralashadi, buglanadi va uzidan yonib ketadi. Bu jarayon 0,002...0,003 sekund davom etadi. Bu karbyuratorli dvigatellardagi karaganda 10 marta tezrok utadi. Bundan keyin uchinchi takt (kengayish) ish jarayoni bajariladi, bu taktda Yonilg'ini yonish jarayoni buladi. Silindrda bosim 7...9 MPa gacha, xarorat esa 1700⁰...2000⁰ S gacha kutariladi. Turtinchi taktda (chikarish taktida) silindrning ishchi xajmidan Yonilg'ining yongan maxsulotlarini chikarish jarayoni amalga oshiriladi.

Yonish jarayonini turt fazaga ajratish mumkin. 1-uz-uzidan alanganish-ning kechikishi (tutilishi); 2-tez yonish yoki bosimning uzluksiz oshish davri; 3-asta-sekin yonish; 4-yonishning tugashi.

Dizel yonilg‘isini yonishiga dvigatelni konstruktiv parametrlari va sikilish darajasi kuprok ta’sir etadi, ya’ni dvigatel silindridda xarorat va bosimni oshishini, yonilg‘ini yonish jarayonini yaxshilaydi.

Yonilg‘ini purkash burchagi oshishi bilan uni uz-uzidan yonish jarayoni kechikadi, chunki yonilg‘i kam sikilgan muxitga tushadi, agarda yonilg‘i juda erta purkalsa, Yonilg‘ining ertarok yonishi natijasida bosim porshenning yukori chetki nuktaga yetmasidan oldin oshib, kuvvat ancha kamayadi va dvigatelning f.i.k. pasayadi.

Yonish kamerasining konstruksiysi xavoni sikishda jadal uyurmali xarakat xosil bulishiga imkon berishi kerak, bu esa yonilg‘ini isishi va buglanish vaktini kiskartirishga imkon beradi.

4.3. Yonilg‘ining uz-uzidan alanganishini baxolash

Dizel yonilg‘ilari dvigatelda issiklik va bosim ostida uzidan-uzi alanganadi, buning uchun xarorat kerakli darajada kutarilishi kerak va unga uzidan-uzi alanganash xarorati deyiladi.

Yonilg‘i tomchisi kancha kichik bulsa, uning parlanish darajasi oshib boradi. Dizel dvigatellari detonatsiya bilan ishlamaydi, fakatgina yumshok va kattik ishlashi bilan ajralib turadi.

Bu asosan yonilg‘ining seton soniga boglik buladi.

Setan soni yonilg‘i tarkibida xajmga nisbatan % xisobida setanning alfamitilnaftalinga nisbati bilan ulchanadi. Bir etalon deb, setan yoki H-geksodekon S₁₆ N₃₄ parafin uglevodordning normal yonilg‘idagisi 100 birlik deb kabul kilingan. Agarda uz-uzidan alanganuvchi aralashmada 45% setan va 55% alfamitilnaftalin bulsa, bu yonilg‘ining seton soni 45 deb olinadi. Dvigatelni bir tekis ishlatish uchun yozgi yonilg‘ilarning seton soni 40...45, kishkida esa 45...50 atrofida bulishi kerak.

Yonilg‘ining setan soni bir silindrli uzgaruvchan sikilish darajali IT9-3m dvigatelida aniklanadi.

Seton soni kuyidagicha aniklanadi.

SS=0,85P+0,1N-0,2A

Bu yerda SS- seton soni.

P-parafin, N-naftton, A-aromatli (xidli) uglevodorodlarning massaga nisbatan % tashkil kilishi.

Yukori seton sonli dizel yonilg‘isini olish uchun va olkanli va olkanli-siklonli neftdan foydalaniladi.

Seton soni 40 birlikdan kam yonilg‘ilar ishlatilganda uz-uzidan yonish jarayoni kechikadi, natijada dvigatel kattik ishlaydi. Agarda seton soni 50 birlikdan yukori yonilg‘ilar ishlatilsa ozuka tulaligicha yonishga ulgura olmasligi natijasida yonilg‘ining solishtirma sarfi oshadi.

Seton sonini oshirish uchun yonilg‘i tarkibiga uglerod oksidi va vodoroddan sintez natijasida olingan suyuk yonilg‘i sintin kushiladi, yoki reaksiyalanishni kupaytirish uchun uglerod perekisi, nitroalkonlar, izopropilnitrat kabilar kushiladi. Yonishni yaxshilash uchun dizel dvigatellarda sikish darajasini oshirish natijasida bosim va xarorat kutariladi, xamda porshenlarni uzida issiklikni yaxshi ushlab turganligi uchun chuyandan yasalgani ma’kuldir.

Yonilg‘ilar uz-uzidan alanganishi murakkab fizik va ximiyaviy jarayon xisoblanadi. Agarda tirsakli val 2000 ayl/min bilan aylanayetgan bulsa, yonish jarayoni xammasi bulib 0,026 sek vakt ichida sodir buladi.

4.4. Yonuvchi aralashma xosil kilish va unga ta’sir kiluvchi faktorlar

Yonuvchi aralashma xosil kilishga kuyidagi faktorlar ta’sir kiladi.

1. Yonish kamerasidagi xarorat va bosim:

Bunga sikilish darajasi, sovitish sistemasi, tirsakli valning aylanishlar soni ta’sir kursatadi.

Agarda tirsakli valning aylanishlar soni past bulsa, yonilg‘ining purkalish bosimi kamayadi. Natijada uz-uzidan yonishi yemonlashadi.

Bu esa yonilg‘ining tejamkorligiga ta’sir kursatadi va yonilg‘i tuligicha oksidlanmasligi natijasida yepishkok lak kurinishidagi moddalar xosil bulib, detallarga salbiy ta’sir kursatadi.

2. Yonilg‘ining ishonchli berilishi.

Bunga asosan yonilg‘ining tozaligi ta’sir kursatadi.

Agarda yonilg‘i toza bulmasa plunjер juftligi, forsunka purkagichlariga mexanik zarrachalar tikilib kolishi va bosim kamayishiga olib keladi. Agarda yonilg‘i tarkibida suv bulsa metallarni zanglashga olib keladi.

3. Yonilg‘ining purkalish darajasi.

Yonilg‘i yonish kamerasiga mayda zarrachalar kurinishida purkalishi kerak, shundagina aralashma tayerlanishi va parlanish jarayoni uchun yaxshi sharoit yaratiladi.

4. Yonilg‘ining fizik-ximiyaviy xossalari.

Bu kursatkichga asosan Yonilg‘ining xaydalanuvchanligi, surilishi kirib uning faktorlariga (loykalanish, kristallanish, muzlash) darajalari kiradi.

Dizel Yonilg‘isining yopishkokligi 20⁰S xaroratda 3....8 mm²/s bulishi kerak. Yonilg‘ining bu xossalari laborotoriya darslarida aniklanadi.

Dizel Yonilg‘ilarining fraksion tarkibi kuyidagicha:

$$T_{50\%}=280^{\circ}\text{C} \text{ va } t_{g6\%}=360^{\circ}\text{C} \text{ yozgi uchun}$$

$$T_{50\%}=225...280^{\circ}\text{C} \text{ va } t_{g6y}=330...340^{\circ}\text{C} \text{ kishki uchun}$$

Bu yerda $t_{50\%}$, t_{g6y} - Yonilg‘ining 50 va 96 foizining kaynash xaroratlari.

Dizel dvigatellarida ishlataladigan Yonilg‘ilar yonganda nagar xosil kildirmasligi kerak.

Nagar asosan yonish kemerasida, gaz taksimlash mexanizmi klapanlarida, porshen xalkalarida, forsunka korpusi va ignasida xosil buladi. Bu esa dvigatelning ishlashiga salbiy ta’sir kursatadi.

Masalan, klapanlarda xosil bo‘lgan nagar, uning yaxshi yepilmasligiga olib keladi, yonish kamerasida bulsa-issiklik utkazish yemonlashishga, forsunkadagi purkash darajasini pasayishiga, porshen va uning xalkalarida esa kompressiyaning pasayishiga, karterga gazlarning utib ketishiga, natijada motor moyi suyuklashishiga, oksidlanishiga olib keladi.

4.5. Dizel Yonilg‘ilarini korroziyalash va kurum xosil kilish xususiyatlari

Dizel Yonilg‘ilarining nagar xosil kilishiga kuyidagi faktorlar ta’sir kursatadi: fraksion tarkibi yaxshi bulmaganligi natijasida tuligicha yonmaslik, yopishkokligi balandligi, tarkibida kup malekulali smola-asfalt aralashmasi bulishi, oltingugurt aralashmalari va mexanik zarrachalar borligidir.

Yonilg‘ilarning nagar xosil kilish kursatgichlari kuyidagilar xisoblanadi: kokslanish, lak xosil kilishi, yod soni va yonmaydigan mineral zarrachalar (zola).

Kokslanish yoki koks soni maxsus priborda aniklanadi va ulchab olingan yonilg‘ining ogirligiga nisbatan % xisobida belgilanadi. Bu birlik urtacha 0,05....0,3% oraligida bulishi kerak.

Bundan tashkari yukori xarorat ta’sirida uglevodorodlar oksidlanib lak xosil kiladi. Bu kursatkich 100m^3 yonilg‘ida 30...40 mg dan oshmasligi kerak.

Dvigatellarda lak va nagar xosil bo‘lgandan keyin uning ishslash sharoiti yemonlashadi va yod xosil buladi. Yod soni deb 100gr Yoyoilg‘ida kancha yod borligi bilan belgilanadi va 6gr/100gr urtasida buladi.

Dizel yonilg‘isi tulaligicha yenib bo‘lgandan keyin unda yonmaydigan mineral zarrachalar koladi. Bu mineral zarrachalar kupayishi natijasida dvigatearning ta’minalash sistemasi detallari va silindr-porshen gruppasiye yeyilish kupayadi, shuning uchun dizel yonilg‘isida bu zarrachalar 0,01% dan oshmasligi zarur.

Dizel yonilg‘isini tarkibida benzinlardagi singari, suvda eruvchan kislotalar, ishkorlar, organik kislotalar, suv borligi va oltingugurt birikmalari borligi detallarni korroziysi yeyilishini tezlashtiradi. Bu jarayon yukori aylanishli kuchaytirilgan dizellarda, urtacha va past aylanishli dizellarga nisbatan tezrok buladi.

4.6. Dizel yonilg‘ilarining turlari va markalari

Dizel yonilg‘ilari DAST 305-82 asosida uch xil markada ishlab chikariladi. L – yozgi; Z – kishki; A – arktik. Yonilg‘ining rangi ochik jigarrang moysimon suyuklik bulib, zichligi $780\dots860 \text{ kg/m}^3$ ga teng, neftni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaydash yuli bilan olinadi. Uning tarkibiga $150-360^0 \text{ S}$ gacha xaroratda kaynaydigan neft fraksiyalari kiradi.

L – yozgi yonilg‘ilar tashki muxit xavosining xarorati 0^0 S va undan yukori bo‘lganda ishlatish uchun muljallangan. Z – kishki yonilg‘ilar xarorat 20^0 S va undan yukori xaroratlar (sovuk mintakalarda) uchun, A – arktik yonilg‘ilar xarorat 50^0 S va undan yukori xaroratlarda (uzgaruvchan iklimli mintakalarda) ishlatishga muljallangan.

Dizel yonilg'ilarining asosiy kursatkichlari 4.1-jadvalda keltirilgan.

4.1-jadval

Yukori oborotli dvigatellar uchun dizel yonilg'ilarining asosiy fizik-ximiyaviy kursatkichlari

Kursatkichlar	Yonilg'ini markalari uchun kursatkichlarni mikdori		
	L	Z	A
1	2	3	3
Setan soni, kam emas fraksion tarkibi	45	45	40
Kaynash xarorati, $^{\circ}\text{S}$			
50%	280	280	255
95%	360	340	330
20 $^{\circ}\text{S}$ dagi zichligi, kg/m ³ , kup emas	860	840	830
20 $^{\circ}\text{S}$ dagi yopishkokligi, mm ² /s	3,0...6,0	1,8...5,0	1,5...4,0
Muzlash xarorati, $^{\circ}\text{S}$			
Klimatik zonaga karab ilik	-10	-35	-
sovuk	-	-45	-55
Loykalanish xarorati, Klimatik zonaga karab ilik	-5	-25	-
sovuk	-	-35	-
Alangalish xarorati $^{\circ}\text{S}$ (umumiyl ishlarga muljallangan dizellar uchun)	50	35	30
Oltingugurt mikdori %			
Yonilg'i turi buyicha			
1	0,2	0,2	0,2
2	0,5	0,5	0,4
Merkaptanli oltingugurt %			
Serovodorod	0,01	0,01	0,01
Suvda eriydigan kislota va ishkorlar, xakikiy smola, Mg/100 sm ³ da	y	u	k
	40	30	30

Mexanik kushimchalar va suv Kislotaligi mg.KON/100sm ³	y y 5	u u 5	k k 5
Yodli son, gI ₂ /100g	6	6	6
Kurumliligi %	0,01	0,01	0,01
Koksligi 10%li	0,3	0,3	0,3
Filtrlanish koefitsiyenti kup emas	3	3	3

Dizel yonilg‘ilari tarkibidagi oltingugurt mikdoriga karab ikki turga bulinadi: tarkibida oltingugurt mikdori 0,2% dan va 0,5% dan oshmaydigan yozgi L va kishki Z navlari uchun va arktik – A navi uchun 0,4% kup bulmagan yonilg‘ilar.

Dizel yonilg‘ilari markalari kuyidagicha belgilanadi: yozgi yonilg‘ilarda oltingugurt mikdori (%) va ut olish xarorati (⁰S). Masalan L – 0,2-40 kuyidagicha izoxlanadi: L – yozgi, 0,2% oltingugurt mikdori, 40⁰S ut olish xarorati.

Kishki yonilg‘ilarda oltingugurt mikdori (%) va kotish xarorati (⁰S) kursatiladi. Masalan Z – 0,2-35; Z – kishki, 0,2% oltingugurt mikdori, - 35⁰ S kotish xaroratini bildiradi.

Arktik yonilg‘ilarda fakat oltingugurt mikdori (%) kursatiladi. Masalan A-0,4; A – arktik; 0,4 oltingugurt mikdori (%) da ekanligini bildiradi.

Yonilg‘ini tejash nuktai-nazaridan karaganda kishki yonilg‘ini yozda, yozgi yonilg‘ini kishda ishlatish maksadga muvofik emas, sababi yonilg‘ining okuvchanlik, kristallanish kabi xususiyatlari uzgarishi natijasida dvigatelning ishlash sharoiti yomonlashishi mumkin.

4.7. Motor yonilg‘ilari turlari va markalari

Urtacha va kichik aylanishli dizellar uchun DAST 1667-68 asosan DT, DM oliy toifali va DT markadagi motor yonilg‘ilari ishlab chikariladi. Bu yonilg‘ilar distillyator va neftni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaydashdagi yoki kreking jarayonida koldik maxsulotlar (mazut) ning aralashmasidir.

Motor yonilg‘ilarining asosiy kursatkichlari 4.2-jadvalda keltirilgan.

4.2-jadval

Urta va kichik aylanishli dizellar uchun motor Yonilg‘isining
asosiy kursatkichlari

Kursatkichlar	Motor Yonilg‘isi markasi uchun mikdori		
	DT oliv kategoriya	DT	DM oliv kategoriya
20 °Sdagi zichligi, g/sm ³ fraksiya tarkibi	0,930	0,930	0,970
250°S gacha xaydaladi	15	15	10
50 °S dagi yopishkokligi: <i>kinematik</i> , m ² /s (s.St)	20*10 ⁻⁶ (20)	36*10 ⁻⁶ (36)	130*10 ⁻⁶ (130)
Kokslanuvchanligi, %	3,0	3,0	9,0
Kurumliligi, %	0,02	0,04	0,06
Oltingugurt mikdori, %			
Kam oltingugurtli	0,5	0,5	-
Kup oltin gugurtli	1,5	1,5	2
Serovodorod mikdori	y	u	k
Suvda eruvchi kislota va ishkorlar mikdori	y	u	k
Mexanik kushimchalar mikdori, %	0,05	0,05	0,1
Suv mikdori, %	0,1	0,5	0,5
Alangalanish xarorati °S	70	65	85
Muzlash xarorati °S	-5	-5	10
Vanadiy mikdori, %	0,01	0,015	0,01

DT markadagi motor Yonilg‘ilari urta va kichik aylanishli yonilg‘ini isitish va tindirish maxsus tizim bilan jixozlangan dizel dvigatellarida kullaniladi. DM markadagi motor yonilg‘ilari suv transportida kullaniladigan dizel dvigatellarida ishlatiladi.

Nazorat savollari:

1. Dizel dvigatellarida ishlatiladigan yonilg‘ilarga kanday talablar kuyiladi?
2. Dizel dvigatellarida yonilg‘ini yonish jarayonini tushuntiring?
3. Yonilg‘i uz-uzidan kanday alangalanadi?
4. Yonuvchi aralashma xosil kilishga kanday faktorlar ta’sir kiladi?
5. Dizel yonilg‘isining korroziyalash va kurum xosil kilish xususiyatini tushuntiring?
6. Seton soni nima va u kanday aniklanadi?
7. Dizel yonilg‘isini kanday turlari va markalari mavjud?
8. Motor yonilg‘ilarining turlari, markalari va ishlatilish soxalarini ayting?
9. Kurum xosil bulishiga nimalar ta’sir kursatadi?
10. Dizel yonilg‘ilarining markalari kanday belgilanadi?

Ma’ruza 5

Mavzu: Gazsimon yonilg‘ilardan foydalanish va ularning ekspluatatsion xossalari. Kattik va boshka turdag‘ yonilg‘ilar

Reja:

1. Gazsimon yonilg‘ilarning turlari, ularning xossalari, afzallikkleri.
2. Sikilgan, suyultirilgan va generator gazlari, ulardan foydalanish.
3. Kattik yonilg‘ilar va ularning turlari, ishlatilishi.
4. Yonilg‘ilarning alternativ turlari va ulardan foydalanish.
5. Gaz kondensatlari va ularning xossalari.
6. Keng fraksiya tarkibli yonilg‘ilardan foydalanish.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 9.

Tayanch iboralar: Gazsimon yonilg‘i, sikilgan, suyultirilgan, generator, kattik, kaloriyalı, yonish issikligi, gazogenerator, benzol, etanol, metanol, slanets, antratsit, efir, torf, kondensat.

5.1. Gazsimon yonilg‘ilarning turlari, ularning xossalari, afzallikkleri

Uzbekiston respublikasi juda xam kup gaz konlariga ega. Shuning uchun kishlok xujalik mashinalari va avtomobil transporti dvigatellarida gazdan foydalanish katta tejamkorlikka olib keladi. Gazsimon yonilg‘ilar boshka yonilg‘ilarga nisbatan kuyidagi afzallikkrlarga ega.

1. Nazariy mikdordagi xavoda yonadi, shuning uchun yukori issiklik, f.i.k, va xaroratga ega.
2. Yonganda zaxarli moddalar, oltingugurt aralashmasi xosil kilmaslik, tutun chikarmaslik xususiyati.
3. Uzok masofalarga trubalar orkali yuborilishi mumkinligi sababli, tashish xarajati kam bulishi.

4. Xar kanday xaroratda xam bir tekis yonish xususiyatiga ega ekanligi.
5. Kazib olinishiga xarajat kam sarflanishi sababli tannarxi pastligi
6. Suyultirilgan va sikilgan xolatda ishlatalishi mumkinligi.
7. Detonatsiya bilan ishlash xususiyati kamligi.
8. Yonganda xar xil smola va zanglatish xususiyatlari pastligi sababli detallarning yeyilishi kamligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birgalikda, ular kamchiliklarga xam ega, ya’ni zaxarlash xususiyatiga egaligi, xavo bilan kushilganda portlovchi aralashmalar xosil kilishi mumkinligi, trubkalarni ulangan joylaridan gazlarning chikib turishi xavfi borligi.

Shuning uchun, gazsimon yonilg‘ilardan foydalanishda texnika xavfsizligi koidalariga tuligicha rioya kilinishi lozim.

Gazdan shuningdek, xar-xil ximiyaviy xom-ashyolar xam olish mumkin. Masalan, Muborakdagи gazni kayta ishlash zavodida oltingugurt olinadi, yoki Shurtandagi kurilayetgan ximkombinatda gazdan etilen va polietilen olinadi.

Gazsimon yonilg‘ilar tabiiy va neftli yulovchi gazlarga bulinib, neft yoki gaz konlaridan, xamda neftni kayta ishlash zavodlarda olinadi.

Gazsimon yonilg‘ilar asosan 4-ta komponentdan (metan, etan, propan, butan va ularning kushilmalaridan) tashkil topgan bulib, bir-birlaridan molekulalari, atomlari bilan fark kiladi. Tabiiy gazlarning tarkibi 82...98% metan, 6% gacha etan, 1,5% gacha propan va 1,0% gacha butandan tashkil topgan.

Yulovchi neftli gazlarda esa metan 40...85% va etan-propan xar kaysisi 20% gacha bulishi mumkin.

Zavodlardan chikkan gazlarda parafin va olifen uglevodorodlari kup bo‘lganligi sababli ulardan plastik massa sintez kilinib xom-ashyo olinadi.

Yonuvchi gazsimon yonilg‘ilarda yukorida kursatilgan uglevodorodlardan tashkari boshka komponentlar: vodorod, uglerod oksidi, azot, kislород, serevodorod, suv buglari bulishi mumkin. Shuning uchun, bu komponentlar keraksizligi sababli tozalanadi.

Gazsimon yonilg‘ilar issiklik berishiga karab 3-ta guruxga bulinadi:

1. Yukori kaloriyalı gazlar 20.000 kDj/m^3 issiklik beradi (tabiiy gazlar, neft konlaridan olinadigan gazlar yoki ularni kayta ishlash jarayonida olinadigan gazlar)
2. Urta kaloriyalı gazlar $10.000...20.000 \text{ kdj/m}^3$ issiklik beradi (koks gazlari va boshkalar).
3. Past kaloriyalı gazlar 10.000 kdj/m^3 gacha issiklik beradi (domna pechlaridan chikadigan va generator gazlari).

5.2. Siqilgan, suyultirilgan va generator gazlari, ular dan foydalanish

Gazsimon yonilg‘ilar fizik xolatiga karab, siqilgan va suyultirilgan xolda bulishi mumkin.

Ba’zi bir xil gazlar juda xam past kritik xaroratga ega bo‘lganligi sababli normal xaroratda yukori bosimda xam suyuk xolatga utmaydi.

Masalan, metan- 82°S gacha gaz xolatda turadi, undan past xaroratga utgandan keyin past bosimda xam suyuklasha boradi, -161°S ga yetganda atmosfera

bosimida xam suyuk xolatga utadi va 1,5...2,0 MPA bosim ostida ishlatiladi. Siqilgan gazlar 20 MPA gacha bosim ostida ishlatiladi.

Siqilgan gazlar kuyidagi kurinishlarda: tabiiy, koksli, metanli va boyitilgan koksli buladi.

Ammo respublikamizda asosan tabiiy sikelgan gazlar ishlatiladi.

Siqilgan gazlarning asosiy komponenti metan xisoblanadi. Suyuk Yonilg'illardagi kabi gazsimon yonilg'ilar tarkibida xam serovodorod bulmasligi kerak. Uning tarkibida vodorod kup bo'lganligi sababli yonish jarayoni juda xam yaxshi kechadi, shuningdek xamma silindrlerga bir xil mikdorda yuboriladi.

Silindrlerga bir tekis tarkalmaslik darajasi suyuk yonilg'illarda 35% gacha bulsa, gazsimon yonilg'illarda 20% gacha bulishi mumkin.

Demak, dvigateining bir tekis ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek sikelgan gazlarda ishlaganda dvigatel kambagallashgan ozikada ($\alpha=1,2\dots1,3$) ishlaydi, natijada uning tarkibida bulishi mumkin bo'lgan zaxarli gazlar yonib, atmosferaga chikarib yuborilishi benzinda ishlagandagiga karaganda uglerod oksidlari 2...3 barobar, azot oksidi 1,2...2, uglevodorodlar 1,1...1,4 barobar kamayadi.

Siqilgan gazlar A va B markada ishlatilib, ularning asosiy kursatkichlari kuyidagicha.

Siqilgan gazlarning asosiy kursatkichlari

Asosiy kursatkichlar	Markasi	
	A	B
Komponentlari tarkibi%		
Xisobida		
Metan	95±5	90±5
Etan	4	4
Propan	1,5	1,5
Butan	1	1
Pentan	0,3	0,3
uglerod ikki oksidi	1	1
Kislorod	1	1
Tarkibida xar-xil moddalar, g/m ³		
Azot	0...4	4...7

serovodorod (kuli bilan)	0,02	0,02
merkaptonli oltingugurt	0,016	0,016
mexanik zarrachalar	0,001	0,001
namlik (kuli bilan) yonish xarorati 0S	0,009	0,009
oktan soni	624,7	608
nisbatan zichligi	108	100
xavo (20^0S xaroratda) kg/m ³	0,5864	0,6005
issiklik berishi kdj/m ³	3500	3383

Gazlar tarkibida sian SN bulmasligi kerak, sababi sian bulsa suv bilan kushilib sinil kislota xosil kiladi va ballonlarda yorilish (treshina) bulishiga olib keladi.

Shuningdek smola birikmalar va mexanik zarrachalar bulsa chukindilar xosil kilishi va gaz apparatlarining kirlanashiga olib ketishi mumkin.

Asosan avtomobillarda ishchi bosimi 20 MPA gacha bo‘lgan silindrik ballonlar ishlatiladi.

Bitta gaz ballooniga 20^0S xaroratda 101,08 KPA bosimda 10m³ gaz ketadi. Agarda uni suvgaga tenglashtirsak 501 suv ketadi.

Gaz tuldirilgan balloonning ogirligi 65 kg gacha buladi, ya’ni 1m³ gazga 6,5 kg ogirlik to‘g‘ri keladi. Ammo gazda ishlaganda avtomobilning yuk kutarish kobiliyati (gaz ballonlarning ogirligi xisobida) 12...20% ga, bosib utish masofasi benzinga karaganda 200 km-gacha kamayadi.

Gazsimon yonilg‘ida avtomobillar dvigatelining kuvvati xam oz mikdorda kamayishi mumkin. Unga issiklik berish kobiliyati pastligi va tuldirilish koeffitsiyenti kam bulishi sabab buladi.

Shuningdek gazoballonli avtomobillarni neftning propan-butan fraksiyasidan olingan suyultirilgan gazlarda ishlatish mumkin.

Uning issiklik berishi 46055 kdj/m³, oktan soni 85...100 birlikgacha buladi.

Suyultirilgan gazlarda ishlaganda motor moyining ishlash muddati, xar-xil zararli zarrachalar kamligi sababli oshadi.

Suyultirilgan gazlar ikki xil markada buladi: SPBTZ (texnik, kishki propan-butanli aralashma) va SPBTL (texnik, yozgi propan-butanli aralashma). Asosiy kursatkichlari jadvalda kursatilgan.

44
Suyultirilgan gazlarning asosiy kursatikichlari

Asosiy kursatikichlar	Markalari	
	SPBTZ	SPBTL
komponentlar tarkibi % xisobi (kuli bilan)		
metan, etan va etilen	4	6
butan va butilen	20	60
propayen va propilen	75	34
massa xisobida suyuk koldiklar (shu xisobida S ₅ uglevodorodi) 293 ⁰ K da %xisobida	1	2
tuyingan buglarning oshikcha bosim, MPA, 318 ⁰ K xaroratda 253 ⁰ K xaroratda	1,57 0,157	1,57 -
Serovodorodlar mikdori g/100m ³	5	5
oltingugurt mikdori kuli bilan	0,015	0,015

Suyultirilgan gazlarning tarkibiga oz mikdorda tetrametil kushilsa Yonilg'ining okton soni oshadi.

Ballonlar xajmiga nisbatan 90% gacha tuldiriladi. Ballonlar massasi 1,6 MPA bosimda, 1 litr gaz 20⁰S xaroratda 0,64...0,7 kg xisobida xisoblanadi.

Benzinga nisbatan ekvivalent deb 1 kg benzin yonganda beradigan issiklik mikdorining 1 m³ gaz yongandagi beradigan issiklik mikdoriga nisbati bilan belgilanib, bu birlik sikilgan gazlarda 0,71...0,83 urtasida buladi.

Suyultirilgan gazlarda ishlayetganda dvigatelning kuvvati sikilgan gazlarda ishlagandagiga karaganda biroz kamayadi. Shuningdek dvigateldan chikayotgan tovush 7...8 bal kamayadi.

Generator gazlari gazogenerator kurilmalarida kattik Yonilg'i (yogoch, torf, kumir, koks, antratsit) bilan kislorodni uzaro ta'sirida termoximiyyaviy jarayonlar amalga oshirilishi natijasida xosil kilinadi. Ularning tarkibida SO, N₂ SN₄, SO₂, N₂O va smolali moddalar buladi.

Bu gazlar silindrga berilishidan oldin tozalanadi. Generator gazlari (xavo gazi, aralashgan gazi, suv gazi) dvigatellar ishlatilganda, sikish darajasi oshirilishiga karamasdan uni kuvvati 15...30% kamayadi.

5.3. Qattiq yonilg‘ilar va ularning turlari, ishlatilishi

Kattik yonilg‘ilarga kislород va uglerodni termoximik ta’siri natijasida, uning yonuvchi kismlaridan generator gazi olinadi. Ammo, bunday gazlardan foydalanish anchagina kimmatga tushishi, zararli komponentlar kupligi sababli kup foydalanilmaydi.

Kattik yonilg‘ilarga, asosan, yerdan kazib olinadigan toshkumir, torf, slanets va utinlar kiradi. Bu yonilg‘ilar juda xam katta axamyatga ega. Bular ichida eng asosiysini toshkumir tashkil etadi. Toshkumir asosan, usimliklarni yemirilishidan yoki tarkibida yeg kup bo‘lgan usimlik va xayvonotning chirishidan xosil buladi. Bular asosan, korakumir, toshkumir, xamda antratsitlarga bulinadi. Korakumir kora rangda bulib, 10..25%, zola, 15...50% namlikka ega. Issiklik berishi juda xam yaxshi bulib, 8400...18800 kDj/kg atrofida buladi. Korakumir tez, uzun olov shaklida yonadi. Undan termik ishvlov berish natijasida kimmatbaxo smola olinadi. Smola esa, kuyuk motor yegini olish uchun mazutni xaydashda ishlatiladi. Korakumir tez oksidlanuvchi bo‘lganligi sababli, uni bir oydan kup saklash mumkin emas. Toshkumir tarkibida organik uglerod kup mikdorda buladi. Zola mikdori kam 6...10 %, namligi 5...11% bulib, issiklik berishi 29400 kDj/kg atrofida buladi. Korakumir asosan, metallurgiyada foydalaniladigan koks olish uchun ishlatiladi.

Antritsit kumirning bir kurinishi bulib, tarkibida uglerod (96,5%gacha), suv (3...5 %), zola (10 %) gacha buladi. Issiklik berishi kumirlar urtasida eng yukori (27200... 30600 kDj/kg). Antritsit asosan, yonilg‘i sifatida ishlatiladi. Slanets kumirga yakin yonilg‘i bulib, tarkibida zola juda xam kup (40...70 %) buladi. Shuning uchun, neftga uxshab tez yonadi, yonuvchi massa 80 % ni tashkil etib, namligi 10...20 % ga teng buladi. Oltingugurt mikdori 1,5...6 %, issiklik berishi 6300...11700 kDj/kg. Tarkibida zola kupligi va issiklik berishi pastligi sababli, slanetsdan fakatgina maxalliy utin sifatida foydalanish mumkin.

Torf asosan, usimlik koldiklarining namgarchilikdan, xavoning namligi natijasida chirishdan xosil buladi.

Torf massasining uglerod 54...60 %, vodorod 5...6,5 %, kislород 30...40 %, azot 0,5...3 %, oltingugurt 0,12...1,5 % ni tashkil etaib, uning issiklik berish darajasi 12600 kDj/kg ga teng. Torfdan maxalliy sharoitda utin yoki ugit sifatida foydalaniladi.

Yogoch utinlar 60 % selluloza, 30 % pignin, 1,0 % mineral kismlardan tashkil topgan. Elementar tarkibi 50 % uglerod, 6 % vodorod, 43 % kislород, 0,7...1,0 % azotdan iborat bulib, issiklik berishi 8400...14700 kDj/kg ga teng. Namligi esa daraxtni kesish mavsumiga boglik buladi.

Yogoch utinlar kattikligiga karab 4 ta guruxga bulinadi.

- 1- dub, grab, yasen, buk.
- 2- ok kayin, listvinnitsa
- 3- olxa, sosna, kedr, pixta
- 4- topol, lipa, osin, iva.

Kishlok xujalik ekinlaridan chikadigan chikindilarga soya, guzapoya va boshkalar kiradi. Bulardan asosan, yem-xashak tayyorlash, maxalliy ugit sifatida, xamda utin sifatida xam foydalanish mumkin.

Tabiiy kattik yonilg‘ilarga fizik- mexanik ta’sir kursatib kerakli Yonilg‘ilarni olish mumkin.

Yogoch kumir, asosan yogochni xavosiz $400\ldots450^{\circ}\text{S}$ kizdirish orkali olinadi. Bu xolatda undan yengil buglanuvchi gazlar, uksus kislota, skipidor, metil spirti, smolali aralashmalar chikib ketadi, natijada 1m^3 yogochdan $110\ldots140\text{ kg}$ yogoch kumiri olinadi. yogoch kumir 75 % uglerod, 4 % vodorod, kislorod va azot birgalikda 20%, zololalar 1 % yakin bulib, 27000 kDj/kg issiklik beradi.

Yogoch kumir asosan, temirchilik ustaxonalarida, rangli metallarni eritishda foydalaniladi. Issiklik berishi asosan yogochning naviga boglikdir. Toshkumirni termik parchalash orkali koks olinadi. Koks tosh- kumirni xavosiz $900\ldots1000^{\circ}\text{S}$ xaroratda termik parchalash orkali olinadi. Koks yonganda 29300 kDj/kg issiklik beradi. Koksdan asosan, sanoatda yonilg‘i sifatida foydalaniladi.

5.4. Yonilg‘ilarning alternativ turlari va ulardan foydalanish

Neftdan olinadigan yonilg‘ilarni sarflanishi va narxining tez oshib borishi, ularning zaxiralarini tobora kamayib borayotganligi boshka turdag'i yonilg‘ilarni kidirib topish va ulardan foydalanishni takozo etadi. Dvigatellarni konstruksiyalariga uzgartirishlar kiritib ularda yokilig urniga spirtlar, ammiak, biogaz, vodorod va boshkalar ishlatib kelinmokda.

Dizel dvigatellarining umumiyligi energetik foydali ish koefitsiyenti neft yonilg‘isida 15%, yonuvchi slanetslarda 11%, kumir yonilg‘isida 9% ga teng, karbyuratorli dvigatellarda esa mos xolda 13, 10 va 8% ga teng.

Keyingi yillarda neft yonilg‘ilarini urnida metanol (metil spirti) va etanol (etil spirti) ni ishlatishga xarakat kilinmokda. Chunki bir xil xarorat va bosimda metanol bilan xosil kilingan ishchi aralashma benzin aralashmasi bilan teng yonish xararoratiga ega, undan tashkari, metanol-xavo aralashmasi zichrok va foydali ish koefitsiyenti ancha yukori.

Sof metanolni oktan soni 92 ga teng (tadkikot usulida), bu esa dvigateli sifish darajasini 14 gacha kutarib dvigateli samarali kuvvatini 20% gacha oshirish mumkin.

Metil va etil spirtlarining oktan sonlari yuqoriligidagi karamasdan seton sonlari past, shuning uchun ularni karbyuratorli dvigatellarda ishlatilishi maksadga muvofikdir. Ba’zi sharoitlarda ularni dizel yonilg‘isi kushib, dizel dvigatellarida ishlatish mumkin.

Spirtlarni yonilg‘i sifatida keng kulamda ishlatishni cheklayotgan omillardan biri ularni korrozion xususiyati bulib, dvigatel detallariga salbiy ta’sir kursatadi, ular yonilgi Filtrlari va karbyurator jiklyorlarini berkitib kuyadi, zichlovchi rezina materiallari spirt ta’sirida shishib ketadi, yonish issikligi pastligi tufayli ular uchun yonilg‘i baklarini xajmi ikki marta katta bulishi kerak.

Chet ellarda neft yonilg‘isi urnida usimlik moylari (kungabokar, loviya, paxta va boshkalar) dan foydalanishga urinilmokda. Usimlik moylarini issiklik berish kobiliyati ancha yukori, lekin ularning yukori kovushokligi tufayli dvigatellarni ishi kiyinlashadi (yonilgi uzatish karshiligi oshadi, Yonilg‘i nasosini ish unumi pasayadi, purkash va aralashma xosil kilish jarayonlari yomonlashadi). Bularning xammasi yonilgini tula yonmasdan detallarni spirtlarida kurum xosil bulishi va yonilg‘ini solishtirma sarfini oshishiga sabab buladi. Alternativ yonilg‘i turlarining ayrim fizik kursatkichlari 5.1-jadvalda keltirilgan.

Alternativ yonilg‘ilarning kursatkichlari

Kursatkichlar	Metanol	Etanol	Ammiak	Gidrozin	Vodorod
Kimyoviy formulasi	SN ₃ ON	S ₂ N ₅ ON	NN ₃	S ₂ N ₄	N ₂
Zichligi, kg/l	0,8	0,8	0,68	1,008	0,09
Yonish issikligi, MJ/ kg MJ/ kg	19,97 15,98	26,80 21,44	18,62 12,67	16,70 15,83	121,0 10,89
Xarorat, °S kaynash kotish	64,7 -98	78,3 -115	-33 -78	113,5 -2	-253 -259
Tuyingan buglar bosimi, KPa	12,67	5,87	800	2,67	-
Stexeometrik koeffitsiyent	6,51	9,06	6,15	4,36	34,8

Gaz kondensatlarining xossalari

Kursatkichlar nomi	Gaz kondensatlari			DAST 302-82 buyicha yozgi L dizel yonilgisi
	I	II	III	
Setan soni	43	53	52	Kamida 45
Fraksiya tarkibi, °S kaynay boshlash xarorati 50 foiz kaynash xarorati kaynash oxiridagi xarorat	103 151 292	111 201 350	140 208 345	280 dan past 360 dan past
20°S dagi kinematik kovushkokligi, mm ² /s	1,2	1,7	2,1	3,0...6,0
Oltингugurt mikdori, foiz umumiy merkaptanli	0,02 0,0001	0,02 0,0001	0,02 0,0001	Kupi bilan 0,2% Kupi bilan 0,01%

Yonilg‘i sifatida vodorodni ishlatish eng istikbolli xisoblanadi. Bunda dvigatelning energetik, ekologik kursatkichlari yaxshilanadi. Vodorodning yukori yonish issikligi 120 mj/kg, benzinniki 45 mj/kg, dizel Yonilg‘isiniki esa 42,7 mj/kg ga teng.

Ammo vodorod – xavo aralashmasining issiklik chikarish kobiliyati benzin – xavo aralashmasinikidan 15% va spirt xavo aralashmasinikidan 10 foiz pastdir.

Xozirgi kundagi eng istikbolli usul bu vodorodni suvdan $4000\dots5000^0$ S da atom reaktorining issikligidan foydalanib termodissotsiatsiya asosida olish xisoblanadi. Bunda eng ogir muammo vodorodni eng kam buglanishini ta'minlab saklashdir. Agarda 50...55 kg benzinni ($450\dots500$ km ga muljallangan) saklash uchun bakni massasi 13...15 kg bulsa, shuncha yul yurish uchun muljallangan 13,4 kg sikilgan vodorodni saklash uchun idishning massasi 1361 kg, suyuk vodorod uchun esa 181 kg ga teng buladi.

Bir kancha xorijiy mamlakatlarda (Germaniya, Chexiya, Slovakiya, Niderlandiya, Rossiya va boshkalar) biogazlardan foydalanish (kishlok xujalik chikindilari biomassasini anoerob usulda – xavo kirgizmasdan chiritishdan olinadi) ustida faol ishlar olib borilmokda.

Bulardan tashkari slanetslar va bitumlardan, kumirdan xam Yonilg‘ilar olish mumkin. Kumirning yonish issikligi neft bilan gazning birgalikdagi yonish issikligidan 2,8 marta yukori. Kumirni gidrogenizatsiya usulida kayta ishlab suyuk Yonilg‘i olinishi oldindan ma'lum.

Xozirgi kunga kelib bu texnologiya yaroksiz xisoblanadi. Xozirgi kunda kumirdan 85% gacha suyuk Yonilg‘i olish texnologiyasi ishlab chikilgan.

Istikbolli Yonilg‘ilarga kuyiladigan asosiy talablardan biri zaxirasining kupligi, ishlab chikarishga keng joriy kilish mumkinligi, transport kurilmasining iktisodiy va texnologik kursatkichlariga mos kelishi va xokazo.

Benzol – aromatik uglerod bulib, toshkumirni kayta ishlash yuli bilan olinadi. Yukori antidetonatsion sifatlarga ega va shu sababli benzinlarga oktan sonini oshirish uchun kushimcha sifatida kushiladi.

Metanol (metil spirt) – neft Yonilg‘ilari urniga ishlatilishi mumkin. U past sifatli toshkumir va yogochdan kam xarajat kilib kup mikdorda olinishi mumkin. Yukori antidetonatsion xossaga ega. Lekin u zaxarli moddadir. Xozirgi kunda metanol neftdan olinadigan Yonilg‘ilarga kushimcha sifatida (10...20%) kullaniladi.

Kumirdan olingan benzinda avtomobil ishlaganda ishlatilgan gazlar tarkibidagi zararli chikindilar nisbatan kup bulishi mumkin. Etanol (etil spirti) – asosan usimliklardan olinadi. U yukori antidetonatsion xossalarga ega. Spirt zaxirasi tunganmasdir, metanolni kumirdan, tabiiy gazdan, oxakdan, maishiy chikindilardan, urmon xujaligi chikindilaridan va boshka ashyolardan xam olish mumkin. Metanol, benzinga nisbatan tulik yonadi. Metanolda dvigatelning kuvvati benzinga nisbatan 10...15% ga oshadi. Etanol gazlardan, shakar kamishdan va boshka usimliklardan olinadi. Spirtlarning kamchiligi yonish issikligining pastligi (benzinga nisbatan 2 marta kam), uchuvchanligi, detallarni korroziyalanishga moyilligi yukori. Efirlar – toshkumir, yogoch va usimliklardan olinadi.

Spirtlarga nisbatan afzalliklarga ega, birok ishlab chikarish kimmattrok. Efirlar neft Yonilg‘ilari urnida ishlatiladigan istikbolli Yonilg‘i deb xisoblanadi.

5.5. Gaz kondensatlari va ularning xossalari

Gaz konlaridan olingan gaz Yonilg‘ilari tarkibida uglevodorodlarning ancha ogir fraksiyalari kupincha mavjud buladi, ular gaz bosimi ortganda va xarorati pasayganda oson suyuklanadi. Gaz kondensatlari, neftdan olinadigan standart suyuk Yonilg‘ilar urnida, Yonilg‘ilar kamyob bo‘lganda ishlatilishi mumkin. Urta Osiyo gaz konlaridan olinadigan 1 m^3 gazning tarkibidan $15\dots170\text{ sm}^3$ suyuk gaz kondensatlari olinadi.

Gaz kondensatlarining muxim tomoni ishlab chikarish arzonligi, saklaganda xossalaring uzgarmasligi, xossasi va tarkibining doimiyligidir.

Urta Osiyo bu Yonilg‘ilarni eng kup yetkazib beradigan region bulib, nafakat uz talabini, balki Kozogiston, Ural va markaziy rayonlarni xam ta’minlaydi. Turli gaz konlaridan olinadigan gaz kondensatlarining tarkibida yengil (karbyuratorli dvigatellar uchun) va ogir (dizellar uchun) gaz kondensatlari mavjud.

Gaz kondensatlari uncha yukori bulmagan antidestanatsion xususiyatlarga ega bulib, ularning oktan soni $54\dots58$ gacha buladi. Ularga tetroetilkurgoshin kushish yuli bilan oktan sonini urta sifatli benzinlarnikiga tenglashtirish mumkin. Gaz kondensatlarini yukori oktanli benzinlar bilan aralashtirib, ularning detonatsiyaga chidamlilagini oshirish mumkin. Bunda gaz kondensatlaridan foydalanish sof benzinga bo‘lgan talabni $50\dots60\%$ ga kamaytiradi. Yengil gaz kondensatlari Muborak, Gazli va Uchkir konlaridan olinadi. Ular benzinlarga nisbatan past xaroratda kaynay boshlaydi, bu uz navbatida dvigatellarning ta’minlash sistemasida bug tikinlari paydo bulishiga moyilligini kuchaytiradi.

Ogor gaz kondensatlari Shoxpaxti, Achak, Shatli, Karim, Kora-Chop, Rovot, Gugurtli gaz konlaridan olinadi.

Gaz kondensatlari tarkibida, dizel Yonilg‘isiga karaganda yengil fraksiyalar kuprok buladi. Bu jixat dizelning ishga tushish xususiyatlarini yaxshilaydi va uz-uzidan alanganishgacha bo‘lgan davrda yonish kamerasida buglanishni tezlashtirishga olib keladi. Kupgina gaz kondensatlarining seton soni $40\dots65$ oraligida buladi. Bu jixat dvigatellarning ancha ravon ishlashini ta’minlaydi.

Gaz kondensatlarining ba’zi xossalari 5.2-jadvalda keltirilgan.

Gaz kondensatlarining xossalari

Kursatkichlar nomi	Gaz kondensatlari			DAST 302-82 buyicha yozgi L dizel yonilgisi
	I	II	III	
Setan soni	43	53	52	Kamida 45
Fraksiya tarkibi, ⁰ S kaynay boshlash xarorati 50 foiz kaynash xarorati kaynash oxiridagi xarorat	103 151 292	111 201 350	140 208 345	280 dan past 360 dan past
20 ⁰ S dagi kinematik kovushkokligi, mm ² /s	1,2	1,7	2,1	3,0...6,0
Oltingugurt mikdori, foiz umumi merkaptanli	0,02 0,0001	0,02 0,0001	0,02 0,0001	Kupi bilan 0,2% Kupi bilan 0,01%

Kupgina gaz konlaridan olinadigan gaz kondensatlari tarkibida eng zararli modda – oltingugurt buladi. Ba’zi xollarda ularning mikdori 3% gacha yetadi, bu esa gaz kondensatlarini dvigatellarda Yonilg‘i sifatida ishlatishni cheklab kuyadi. Gaz kondensatlari tarkibidagi oltingugurtni kamaytirish uchun maxsus texnologiya kullash talab etiladi, bu esa gaz kondensatlari ishlab chikarishni kimmatlashadir.

5.6. Keng fraksiya tarkibli Yonilg‘ilardan foydalanish

Dvigatellarning texnik-tejamkorlik va ekspluatatsiya kursatkichclarini takomillashtirish, birinchidan, dvigatellarni konstruksiyasini va ishslash jarayonlarini yaxshilashni kuzda tutadi. Ikkinchidan unda ishlatiladigan Yonilg‘i tarkibini tanlash va yaratishga boglik.

Shuning uchun xam xozirgi Yonilg‘i ishlab chikarish strukturasini kaytadan kurib chikish maksadga muvofikdir. Bu muammoni xal etish yullaridan biri dizel Yonilg‘ilarini fraksion tarkibini ularga xam yengil va xamda ogir neft fraksiyalarini aralashtirish yuli bilan kengaytirishdan iborat. Keng fraksiya tarkibi (K.F.T.) va ogirlashtirilgan fraksiya tarkibi (O.F.T.) Yonilg‘ilar sinovdan utkazilmokda. Shuni aytish kerakki, yonilgi tarkibining yengil fraksiyalari tez, tula va yengil buglanib, Yonilg‘ini tejamkorligini pasaytiradi, ishlab chikarilgan gazlarni tutunligini oshiradi. Buning uchun dvigatellarning ish jarayonlarini takomillashtirish va ratsional Yonilg‘i yaratish bir-biriga boglik muammo xisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Gazsimon Yonilg‘ilarning kanday turlari va markalarini bilasiz?
2. Gazsimon Yonilg‘ilarning tarkibi kanday aralashmalardan tashkil topgan?
3. Gazsimon Yonilg‘ilarning afzalliklari va kamchiliklarini aytib bering?
4. Sikelgan va suyultirilgan gazlarning kanday markalarini bilasiz?
5. Kattik Yonilg‘ilarning kanday turlari mavjud?

6. Alternativ Yonilg‘ilarning turlarini aytib bering?
7. Kattik xom-ashyolardan kanday turdag'i Yonilg‘ilar olinadi?
8. Gaz kondensatlarining kanday turlari mavjud?
9. Usimliklardan kanday Yonilg‘ilar olinadi?
10. Keng fraksiya tarkibli Yonilg‘ilar to‘g‘risida tushuncha bering?

Ma’ruza 6

Mavzu: Kishlok xujalik texnikalari uchun moylash- materiallaridan foydalanish va ularning ekspluatatsion xossalari

Reja:

1. Ishkalanish turlari va ular to‘g‘risida tushunchalar.
2. Yeyilish turlari va ularning sodir bulishi.
3. Moylash materiallarining turlari va ularga kuyiladigan talablar.
4. Moylarga kushiladigan kushimchalar (prisadkalar) va ularni turlari.
5. Moylarni xolatiga ta’sir kiluvchi faktorlar.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 13.

Tayanch iboralar: ishkalanish, yeyilish, moylar, prisadka, mineral, sintetik, korrozion, molekulyar, mexanik, oksidlanish, yuvuvchi, kupiklanish, faktorlar, modda.

6.1. Ishkalanish turlari va ular to‘g‘risida tushunchalar

Zamonaviy yukori ish unumiga ega bo‘lgan va murakkab transport vositalarini betuxtov ishlashini, chidamlilagini va ishonchlilagini ta’minlashning asosiy omillaridan biri moylash materiallarini to‘g‘ri tanlash va ularni optimal ishslash tartibiga rioya kilishdir.

Bu muammolarni yechishda olimlardan Chernojukov N.I., Krayn S.E., Papok K.K., Ramayya K.S., Vinogradov G.V., Losikov B.V., Semenida YE.G. va boshkalar uzlарining katta xissalarini kushdilar.

Professor Papok K.K. moylash materiallarini xususiyatlarini uzgarish konuniyatlarini urganadigan yangi amaliy fan – moylash materiallari ximmatologiyasiga asos soldi. Ximmatologiya moylash materiallari fizikaviy-ximiyaviy va ekspluatatsion xususiyatlarini, mexanizmlarni, tarmoklarni ishslash tartibi va jarayonlar bilan boglik xolda kuradi.

Detallarni nisbiy siljishini xarakteriga kura sirpanish - ishkalanish (ishkalanishni birinchi turi) va dumalash – ishkalanish (ishkalanishni ikkinchi turi) turlariga bulinadi. Shuningdek statik ishkalanish – xarakatlanishga karshilik kursatuvchi kuch va dinamik ishkalanish – sirtlarning xarakatlanishida paydo buladigan kuchlar turlari xam mavjud.

Sirpanish – ishkalanish ishkalanuvchi sirtlarda moylash materiallarini mikdoriy katlamiga karab kuyidagi turlarga bulinadi: kuruk ishkalanuvchi sirtlar

orasida moylovchi jism bulmasa, suyuklik ishkalanish, chegaraviy ishkalanish, aralash ishkalanishlar (kuruk va suyuk yoki suyuk va chegaraviy) buladi.

Dumalash – ishkalanish – bu bitta egri chizik sirti kattik jismni boshka kattik jism sirtida dumalashga karshiligidir.

Dumalash – ishkalish kuchi sirpanish – ishkalish kuchidan kam buladi, shuning uchun kullash mumkin bo‘lgan joylarda asosan dumalash podshipniklari kullaniladi.

Xar kanday mexanizm bir-biriga tegib xarakatlanishi natijasida ishkalonish sodir buladi. Ishkalanish natijasida detallar yeyiladi, xamda ikalanishni yengishga kuvvat sarf buladi. Ishkalanishni kamaytirish maksadida moylash materiallaridan foydalaniladi.

6.2. Yeyilish turlari va ularning sodir bulishi

Mashina va mexanizmlarning ishlashi kup omilligi tufayli moylash kanchalik takomillashgan bulmasin, ekspluatatsiya davrida detallar yeyiladi. Detallarda eskirish va yeyilish tushunchalari ishlatiladi. Eskirish – bu kattik jismni yemirilishi va uni sirtidan materiallarni ajralib chikishi xamda ishkalanishda koldik deformatsiyani yigilishi, buning natijasida jismning shakli va ulchamlari uzgarishidir.

Yeyilish – bu yemirilish natijasi bulib, ma’lum ulchamlar bilan aniklanadi.

Yeyilishning kuyidagi turlari mavjud:

1) Mexanik yeyilish: yeyilishning bu kurinishi asosan ishchi yuzaning uzidan kattik materialga tegishi natijasida sodir buladi (plug lemexlari, kultivator organlari).

2) Molekulyar-mexanik yeyilish: yeyilgan metall zarrachalarining aylanuvchi detallarga yigilib, yepishib kolishi natijasida sodir buladi.

3) Korroziyanish-mexanik yeyilish: bu xarakatlanuvchi yuzalarga kislota va ishkorlarning ta’siri ostida sodir buladi.

Traktor va avtomobillar ishlatilganda yeyilishlar juda xam murakkab kurinishlarda sodir buladi.

Masalan, dvigatellarning silindr gilzalari yuzasi, porshen xalklari xavo va Yonilg‘i bilan birga kiradigan chang tuzonlar ta’sirida yeyilsa, xuddi shuningdek yenganda xosil buladigan zararli oltingugurt kislotasi, bosim, xarorat, kislorod ta’sirida xam yeyiladi. Demak, uch xil yeyilish xam bir vaktda dvigatelda sodir bular ekan.

6.3. Moylash materiallarining turlari va ularga kuyiladigan talablar

Moylash materiallari vazifasi, kelib chikishi, olinadigan xom-ashega, tashki kurinishiga, kullanilishiga karab kuyidagicha turlarga bulinadi.

1) Kelib chikishi yoki olinadigan xom-ashyosiga karab:

a) Mineral yoki neftdan olinadigan moylar:

Bu moylar ishlatiladigan moylarning 90%dan kupini tashkil etadi, asosan neftdan yoki ularni kayta ishlash natijasida olinadi. Olinishiga karab distilyat usulda, koldik xom-ashyoni kayta ishlash, kompaundlash yoki aralash uslublarda olinadi.

b) Usimlik va xayvonot moylari:

Usimlik moylari usimliklarning urugini kayta ishlash yuli bilan olinadi. Texnikalarda kuprok kastorovoy, gorchichnikli, surepli moylari ishlatiladi. Xayvon moylari xayvonlarning (kuy, koramol, texnik baliklar, suyaklar) yegidan olinadi. Bu moylarning yopishkokligi juda xam yukori, moylash xususiyati yaxshi, ammo issiklik ta'sirida uzining xolatini tezda yukotadi. Shuning uchun bu moylar neftdan olingan aralashmalar bilan kushib ishlatiladi.

v) Sintetik moylari:

Neft va neft bulmagan xom-ashelardan, suyuk va gazkurinishidagi uglevodorodlarni katalitik polimerlash, kremniyning organik birikmalarini sintez kilish orkali ftorouglodli moylar olinadi. Sintetik moylar barcha texnik talablarga javob beradi, ammo olinishi kimmata tushganligi uchun fakatgina uta nozik uzellarni moylash uchun ishlatiladi.

II) Tashki kurinishiga karab:

a) Suyuk moylar (neft va usimlik moylari), oddiy xolatda xam suyuk bulib, okuvchanlik xususiyatiga ega.

b) Plastik yoki konsistent moylar (texnik vazelin solidol, konstalin va boshkalar), ular antifriksion, konservatsiyalash, jipslashtirish ishlarida ishlatiladi.

v) Kattik moylar (grafit, slyuda, talk va boshkalar). Bular uz xolatini xar kanday xaroratda va bosimda uzgartirmaydi. Bularni asosan suyuk va plastik moylar bilan kushib ishlatiladi.

III) Kullanilishiga karab.

a) Motor moylari. Ichki yenuv dvigatellarida (karbyuratorli, dizel, aviatsiya va boshkalar) ishlatiladi.

b) Transmissiya moylari-traktor, avtomobil, kombayn va boshka mashinalarning transmissiyasida ishlatiladi.

v) Industrial moylar-asosan stanoklarni moylash uchun ishlatiladi.

g) Gidravlik moylar-xar-xil mashina va mexanizmlarning gidrosistemasiда ishlatiladi.

d) Kompressor, pribor, silindr, elektrizolyator, vakuum va boshkalarda ishlatiladi.

IV) Foydalanishidagi xaroratga karab.

a) Past xaroratda: bunda xarorat 60°S dan oshmasligi kerak (priborlar, industrial).

b) Urta xaroratda-xarorat $150-200^{\circ}\text{S}$ da (turbina, kompressor, silindr va boshkalar).

v) Yukori xaroratda –xarorat 300°S gacha kutarilganda. Bu asosan motor moylaridir.

Moylovchi materiallar kuyidagi vazifalarni bajarishi xamda shartlarga javob berishi kerak.

-ishkalanib xarakatlanuvchi detallarni yejilishini tuxtatishi yoki kamaytirishi. Buning uchun normal ishchi xolatida ular uzining yepishkoklik va okuvchanlik xususiyatini yukotmasligi zarur.

-datallar orasida ishkalanishni kamaytirishi va f.i.k.ni oshirishi. Buning uchun moylar normal yepishkoklikka ega bulishi va bu xolatini xaroratga karab uzgartirmasligi kerak. Eng asosiysi dvigatelni yurgizib yuborishda va minus xaroratda ishlatilganda yukorida keltirilgan barcha xolatini saklashi lozim.

-ishkalanish natijasida xosil bo'lgan issiklikni moylar uzi bilan olib ketishi, ya'ni detallarni kizib ketishiga yul kuymasligi kerak, sababi kizish natijasida detallarning ishslash sharoiti yomonlashadi.

-detallarning ishchi yuzalarini suv, kislород, kislotalar ta'sirida korroziyanishiga yul kuymasligi.

-silindr-porshen guruxining yaxshi jiisligini ta'minlashi, natijada karterga yengan gazlarning utib ketishiga yul kuyilmasligi.

-detallarning yuza kismidan yejilgan zarrachalar va boshka iflosliklarni yuvib tozalab turishi.

-detallarning yuza kismini smola, lak kuyindilari, xamda nagar bosishiga yul kuymasligi.

6.4. Moylarga kushiladigan kushimchalar (prisadkalar) va ularni turlari

Moylash materiallari ishlatilishi davomida unga xar xil ta'sirlar: yukori xarorat, xavodagi bo'lgan kislород, dvigatellarda esa: yonuvchi ozuka, yukori bosim va xarorat, yonish natijasida xosil bo'lgan xar-xil oksid, kislota va ishkorlar moyning okishining doimo uzgarib turishi, mexanizmlarning xar-xil rejimda ishlab turishi kabiladir. Demak, moy ishlatilishi natijasida uning birlamchi sifati uzgarib boradi. Shunday kilib moylar ishlatilishi davomida yetarli darajada yepishkoklikka ega bulishi, yukori termik oksidlanishga chidamli, korroziyanishni kamaytirish xususiyatiga ega bulishi, xar xil sharoitda xar yaxshi okuvchanlik xususiyatiga ega bulishi zarur. Demak, moylar belgilangan almashtirish muddatigacha uz xolatini tuligiga saklab turishi kerak.

Yukorida kursatilgan talablarning bajarilishini ta'minlash uchun motor moylariga ularning sifatini yaxshilash maksadida xar-xil kushimcha (prisadka) kushiladi.

Kushimchalar (prisadkalar)-murakkab ximik aralashma bulib, oz mikdordan tortib toki 20...30% va undan xam kup kushilishi mumkin.

Prisadkalar uzining asosiy vazifasini bajaribgina kolmay, kuyidagi talablarga xam javob berishi zarur: moylarda erib ketishi, xaroratda va uzok vakt saklanishda chukindilar xosil kilmasligi, termik va ximik chidamli, dvigatelda ishlatilganda uzining vazifasini tuligicha bajarish kerak. Prisadkalarning turlari va ularning bajarishi kerak bo'lgan funksiyalarga kuyidagilar kiradi:

1) Oksidlanishga karshi prisadka.

Moylarning uzok vakt ishlatilishining eng asosiy kursatkichlaridan biri yukori xaroratda, xamda xar-xil ta'sirlar natijasida ular uz xolatini saklashi, ya'ni

oksidlanmasligi zarur. Oksidlanish natijasida moyning sifati buziladi, xamda temir, mislarga katalik ta'sir kursatadi. Eng kup foydalaniladigan alkil-fenol xisoblanadi. Bunda ionol, amin kotishmasi, xamda tarkibida oltingugurt, azot va fosfor, azot va fenol gidroksili bo'lgan birikmalar kiradi. Bu prisadka oksidlanish jarayoni reaksiyasini parchalaydi, rivojlanishiga yul kuymaydi, xamda oksidlanish jarayoni moddalari bilan kushilib yangi bir oksidlanishga karshi birikmalar xosil kilishi mumkin.

2) Korroziyanishga karshi prisadka:

Dvigatellarning podshipnik (vkladish)lari asosan rangli metall (mis, kurgoshin) kotishmasidan yasaladi. Rangli metallarga moyda xosil bulishi mumkin bo'lgan kislota, moy oksidlari ta'sir kilib oksidlanadi, keyinchalik esa eriy boshlaydi. Shuning uchun korroziyanishga karshi prisadkalar sifatida tributilfosfit, trifenolfosfit, oksilfenolyat kabilarning birikmalari ishlatiladi. Bu prisadkalar metall atrofida saklash plenkasi xosil kiladi, xamda korrozillanishga yul kuymaydi. Boshka bir vazifasi esa moylarning oksidlanish jarayonini syokinlashtiradi. Tajribalar shuni kursatadiki moyning kislotalanishi 0,5...0,6 mg KON-ga yetsa podshipnikdagi kurgoshinni yuvib yuborishi mumkin.

3) Yuvuvchi va tozalovchi prisadkalar.

Dvigatellar ishlashi natijasida silindr-porshen guruxining detallarida lak va nagarlar xosil buladi. Bular uzidan issiklikni kam utkazadi, xamda porshen xalkalarining xarakatlanishini kamaytiradi natijada dvigatelda kompressiya kamayadi, xamda motor moylarining kuyishini (ugar) kuchaytiradi.

Shuning uchun, yuvuvchi va tozalovchi prisadkalar sifatida xar xil sulfo-karbon kislota, alkilfenolyat, zolasiz va oz zolali polimerlar ishlatiladi. Keyingi vaktlarda SB-3 (boriy tuzli sulfokislot dizel moylari uchun) xamda SK-3 (kalsiy tuzi) ishlatilmokda.

Yukori sifatli V va G guruxlariga kiradigan moylarda esa MASK (kup zolali alkilsalitsipot nartiy) prisadkasi ishlatiladi. Bu prisadkalar Nagar va lakkarning xosil bulishiga yul kuymaydi yoki ularni parchalab yuboradi:

4) Yeyilishiga va ternalishga karshi prisadkalar.

Xarakatlanuvchi detallarning ishchi yuzasida chidamli moy katlami xosil kilish, natijada detallarning yeyilishini kamaytirish zarur. Shuning uchun moylarga prisadka kushilsa moy katlami yanada chidamli buladi. Bularga tabiiy yoglar, yogli kislota, efirlar kiradi.

Shuningdek, baland xaroratda detallar bir-birlariga yepishib kolishini oldini olish maksadida aktiv bulmagan oltingugurt yoki fosfor kislotasining efirini kushish mumkin. Ternalishga karshi prisadkalarga esa oltingugurt, fosfor va xlor, xamda surma, molibden kurgoshinning fosforga kushilgan kushilmalaridan foydalanish mumkin.

5) Moylarning yopishkokligini oshiruvchi prisadkalar.

Moylar baland xaroratda xam uzining yepishkoklik xususiyatini yukotmasligi, aksincha past xaroratda esa okuvchanligini yemonlashtirmasligi kerak. Shuning uchun yopishkokligini oshiruvchi prisadkalardan foydalaniladi. Bularga poliizobutilen, polivinilalkil efiri, shuningdek izobutilenni xlorli alyumin bilan – 76⁰Sda polimerlash natijasida superol olinadi. Vinil-n-butil efirini benzol

peryokisi bilan polimerlash natijasida vinipol olinadi. Bunday prisadkalar yepishkoklikni oshirishi bilan birgalikda moylashni xam yaxshilaydi.

Keyingi vaktlarda polimerli prisadka SKEPS (etilen propilenli polimer) dan foydalanimokda. Agarda M-4 moyga uni kuyuklashtirish uchun 0,9...1,5% SKEPS prisadkasi kushilsa yepishkoklik indeksi 128, yaxlash xarorati -42°S -bo'lgan M- $4_{3/8}$ motor moyi olish mumkin. Moylarni kuyuklashtirish maksadida xayvonot, usimlik va mineral moylarga yukori chastotali elektr toki ta'sir kildirilib kuyuklashtiruvchi voltoli prisadkasi olinadi.

6) Okuvchanlikni (depressor) oshiruvchi prisadkalar.

Oddiy moylarni sovuk xavoda okuvchanlik xususiyati kamayib ketishligi sababli foydalanib bulmaydi. Shuning uchun yaxlash xarorati baland bo'lgan moylarga okuvchanligini oshirish maksadida dialkilnaftalin, paraflod, santopur, polimetakrilat kabi prisadkalar kushiladi.

Bu kushilmalar yaxlash natijasida xosil buladigan kristallarni parchalaydi.

7) Kupiklanishga karshi prisadkalar.

Kupiklanish asosan moylarning kuchli aralashuvi va unga xavoning kushilishi natijasida xosil buladi. Kupiklanish darajasiga asosan moyning xarorati, yopishkokligi, zichligi ta'sir kiladi Kupiklangan moy yeyluvchi yuzalarni moylash darajasiga birdaniga yemon ta'sir kiladi.

Kupiklanishga karshi prisadkalarga kalsiyli sovun, lanolin, aksilsulfat, kaliy olsati, polisilosin, polimetilsiloson (PMS-200A) polidimetilsilosan, polietilsiloson kabilar kiradi. Bular xosil buladigan gaz kupiklarini maydalaydi. Shuningdek keyingi vaktlarda moylarga ularning kupgina ekspluatatsion xossasini yaxshilovchi prisadkalardan xam foydalanimokda. Bunga alkilfenolli, fenolsulfidli va tarkibida fosfor va oltingugurt bo'lgan polimer birikmalari kiradi.

Ammo, yukorida kursatilgan barcha prisadkalar kaysi moy guruxiga ishlatilishiga karab ularning tarkibi uzgarib boradi.

6.5. Moylarni xolatiga ta'sir kiluvchi faktorlar

Moylarning sifati, xamda ularning fizik-ximiyaviy kursatkichlari, ekspluatatsion xossalari urganish va tekshirish turtta etapda utkaziladi.

Bular: laboratoriya sharoitida, modelda yoki kichik ulchamli bir silindrli dvigatellarda, dvigatel urnatilgan stendda va sungra mashinalarni ekspluatatsiya kilish davomida amalga oshiriladi. Moylarning ekspluatatsion kursatkichlari kuyidagilar xisoblanadi:

1. Moylarningepishkoklik xususiyati.
2. Termik oksidlanishga chidamliligi (turgunligi)
3. Korroziyalanishga karshi xususiyati
4. Yeyilishga karshi xususiyati.

Bu xossalalar laboratoriya darslarida tushuntiriladi, kursatiladi.

Moylash sistemasi moylanadigan detal va uzellarni bir tekisda va uz vaktida moylab turishi kerak. Shuning uchun moylash sistemasini xam takomillashtirib borish zarur.

Moylarga ta'sir kiluvchi va ularning xolatini uzgartiruvchi asosiy faktorlar kuyidagilardir.

1. Motor moylarini oksidlovchi faktorlar.

a) birlamchi oksidlovchi modda bu kislorod xisoblanadi. Chidamsiz kislorod birikmali xarorat va xavodagi kislorodning ta'sirida kislota va kislota oksidlariga aylanadi. Keyinchalik oksidlanish jarayoni kuchayib smola, asfalten, karbenga aylanib, dvigatel detallarida lak va nagar xosil kiladi.

Eng zararli oksidlovchi moddalarga kislota oksidi va asfalten kiradi. Bu moddalar yepishkoklik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli porshen xalkalarini kokslanishga olib keladi va natijada xalkalar kuyadi.

b) Xaroratning ta'siri.

Xaroratning kutarilishi oksidlanish jarayonini tezlashtiradi, masalan, xarorat 50°S dan 150°S gacha kutarilganda oksidlanish 1700 marta tezlashadi.

v) Vaktga boglikligi.

Bu kursatkich asosan moyning sifatiga va uning tozalanishiga boglik. Umuman olganda vakt utishi natijasida oksidlanish darajasi xam oshadi.

g) Moylarning yuza kismining oksidlanishga ta'siri.

Bu faktorlar kislorodning moyda diffuziyalanishiga va oksidlanishiga katta ta'sir kursatadi. Tajribalar shuni kursatadiki oksidlanish asosan yupka katlam tashkil kiladigan gilza va porshen yuzasida xosil buladi.

d) Moylarning ximik tarkibi.

Moylar tarkibi xar-xil uglevodorodlardan tashkil topgan bulib, asosan olinadigan xom-ashesiga boglik.

Moylar asosan parafinli (0,1...6,5%), naftenli(40...82%), xid beruvchi (15...40%) uglevodorodlardan, xamda kislorod, oltingugurt, azot birikmalaridan tashkil topgan buladi. Bu uglevodorodlarga kislorodning ta'siri bir-xil bulmaydi. Yukori xaroratda parafin va naftenli uglevodorodlarga kislorod unchalik ta'sir kilmasa, xid beruvchi uglevodorodlarga esa tez ta'sir kiladi.

ye) Moylarning tozalanish darajasi.

Bu kursatkich xam oksidlanishga ta'sir kursatadi. Moylarni juda kup tozalanishi xam ularning tez oksidlanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, moylardagi smolalar xam oksidlanishga ta'sir kursatishi mumkin ,buni kuyidagi jadvaldan bilsa buladi:

Smola tarkibi %	Oksidlangan moydag'i mikdori	
	kislotalar, mg.kon	chukindilar, %
1,610	0,13	0,03
0,278	0,54	0,08
0,098	11,16	2,28

Demak, kurinib turibdiki, moy tarkibida smolalar bulishi xam oksidlanish darajasini kamaytirar ekan.

j) Metall va kotishmalarning ta'siri.

Oksidlanishga detallarning materiallari katalizator sifatida katnashishi mumkin, ammo uning ta'siri xar-xil buladi.

Masalan, kurgoshinli bronza, kaliyli bronzaga karaganda tezrok oksidlanishga katnashadi.

z) Xar-xil tashki moddalarning ta'siri.

Moy tarkibida suv, detallarning yeyilishidan xosil bo'lgan kirindilar, xavodagi chang bulishi oksidlanishni tezlashtirishi mumkin. Ammo, bularni ta'sirini kamaytirish uchun moyni dvigatelda sifatli Filrlash lozim. Moyni tozalashni takomillashtirish orkali uning ishlash muddatini 2 marta oshirish mumkin.

II. Moylarning sirkulyatsiya (aylanish) darajasiga karab sifati uzgarishi.

Moy nasosi moyni karterdan tuxtamasdan surib, moy magistraliga xaydaydi, shundan 20...25% moy moylash uchun sarf bulsa, kolgan kismi kaytib karterga tushadi. Moy nasosining shesternyäsining tishlari moyga ta'sir kilib, oksidlanishni tezlashtirishga yerdam berishi mumkin. Shuningdek, dvigatel uzok vakt ishlashi natijasida moyda xar-xil mexanik zarrachalar, xamda yonmaydigan chukindilar kupaya boradi.

III. Moylash sistemasidagi moyning mikdorining uning sifatiga ta'siri.

Moyning satxini karterda kamayishiga karab uning sifati yemonlasha boshlaydi, satx kupayishi esa moyning tozalanish darajasini yemonlashtiradi, salniklarning teshilishiga sabab buladi. Shuning uchun, karterdag'i moyning mikdorini belgilangan satxda saklab turish zarur.

IV. Dvigatellarga beriladigan yuklamaning moyning sifatiga ta'siri.

Kishlok xujaligida ishlatiladigan traktorlarning dvigatellari kishlok xujalik ishlarini bajarishda 70...90%, transport ishlarida 30...60% mikdorda yuklamada ishlaydi. Shuningdek, kishlok xujalik ishlarini bajarishda traktorlarning ishlash sharoiti turli xil ishlarni bajarishda bir-xil bulmaydi. Dvigatelga yuklama kancha kup berilsa oksidlanish shuncha tezlashadi. Bunga sabab xarakatlanuvchi detallarga issiklik va solishtirma yuklamalarning oshishi, karterga oltingugurtli birikmalarning utib ketishi, xamda sirkulyatsiyalish darjasining tezlashishi sabab buladi.

Nazorat savollari:

1. Ishkalanishni kanday turlari mavjud?
2. Yeyilishni turlarini va ularning sodir bulishini aytib bering?
3. Moylash materiallariga kanday talablar kuyiladi?
4. Moylash materiallarining turlarini ayting?
5. Moylarga kushiladigan prisadkalarni vazifasi va ularning turlarini aytib bering?
6. Eskirish va yeyilish deganda nimani tushunasiz?
7. Moylashni kanday usullari mavjud?
8. Moylarni xossaliga kanday faktorlar ta'sir kiladi?
9. Sirpanish – ishkalanish va dumalash – ishkalanish to‘g‘risida tushuncha bering?
10. Prisadkalar kanday talablarga javob berishi kerak?

Ma’ruza 7

Mavzu: Motor moylari va boshka soxalarda ishlataladigan moylarning ekspluatatsion xossalari va ulardan effektiv foydalanish

Reja:

1. Motor moylarining belgilanishi, navlari va markalanishi.
2. Motor moylarining ishlatalish davomida sifatining uzgarishi.
3. Transmissiya moylari, xossalari, belgilanishi.
4. Gidromexanizmlarda ishlataladigan moylarning markalari va xossalari.
5. Industrial moylarning turlari va ishlatalishi.
6. Transformotor, kompressorlar,sovutkichlarda ishlataladigan moylar.
7. Plastik moylarning vazifasi, navlari va xossalari.

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 13.

Tayanch iboralar: motor, moy, nav, marka, karbyuratorli, dizel, aylanishli, tozalash, yopishkoklik, sinf, gurux, faktor, transmissiya, gidromexanik, industrial, transformotor, plastik, freon.

7.1. Motor moylarining belgilanishi, navlari va markalanishi

Ichki yonuv dviigatellarining turiga karab moylar kishki, yozgi, kuyuklashtirilgan (barcha mavsumiy) kurinishlarda buladi.

Motor moylari ishlalistishga karab 6 guruxga (A, B, V, G, D va YE) bulinadi va xar kaysisi kuyidagicha belgilanadi.

- A- karbyuratorli (oddiy) dvigatellarda
- B₁ -kichik aylanishli karbyurator dvigatellar
- B₂ -kichik aylanishli dizel dvigatellar
- V₁ -urta aylanishli karbyuratorli dvigatellar
- V₂ -urta aylanishli dizel dvigatellar
- G₁ -katta aylanishli karbyuratorli dvigatellar
- G₂ -katta aylanishli dizel dvigatellar
- D-ogir ish-sharoitida ishlovchi dizel dvigatellar

YE-kichik aylanishli, tarkibida kup oltingugurti bo‘lgan ogir Yonilg‘ida ishlovchi dizel dvigatellarda (poraxodlarda).

Xarflardagi kuyilgan indekslar 1-karbyurator, 2-dizel dvigatellar uchun muljallanganligini bildiradi.

Motor moylarining markalari kaysi dvigatelda ishlatalishi, dvigatellarning aylanishlar soniga, urtacha bosimga, sikilish darajasiga moyning tozalanish uslubiga, dvigatelning ishlash issiklik rejimiga, nadduvdan foydalanishiga karab belgilinadi.

Yopishkokligiga karab yozgi va kishki motor moylar 7 sinfga (6, 8, 10, 12, 14, 16 va 20) bulinadi.

Barcha mavsumda ishlatiladigan kuyuklashtirilgan moylar esa 10 ta ($3_3/8$, $4_3/6$, $4_3/8$, $4_3/10$, $5_3/10$, $5_3/12$, $5_3/14$, $6_3/10$, $6_3/14$ va $6_3/16$) ga bulinadi.

Yozgi va kishki moylar sinfi moyning 100^0 S da mm/s dagi xolati bilan belgilanadi.

Barcha mavsumli moylarda esa (3, 4, 5, 6) moyning-18 S dagi, keyingi sonlar esa (8, 6, 12, 10, 14, 16) 100^0 S dagi yopishkokligini bildiradi.

Bu yerdagi sonlar 3 demak -18^0 S da uning yopishkokligi 1250 mm/s, 4 - 2600 mm/s, 5- 6000 mm/s, 6- 10400 mm/s ligini bildiradi. Kursatilgan 3 xarfi esa moyga kuyuklashtiruvchi prisadka (kushimcha) kushilganligini bildiradi.

Barcha mavsumli moylar yilning xamma faslida xam ishlatilishi mumkin.

Kuyuklashtiruvchi prisadka kushilmagan 6,8 markalarini esa fakatgina kishda ishlatish mumkin, sababi uning kuyuklashish xarorati past va okuvchanligi baland buladi.

Moylarning guruxlariga karab unga kushimcha prisadkalar xar-xil mikdorda ishlatiladi.

Masalan, A- guruxdagи moylarga prisadkalar juda kam ishlatiladi, B- guruxda 3...5% gacha, V -8% gacha, G-8...12%, D va YE-18...25% gacha kushilishi mumkin.

Shuningdek, karbyurator va dizel dvigatellarida xam ishlatilishi mumkin bo‘lgan universal moylarni ishlab chikarish xam muljallangan.

Motor moylarining markasi tuligicha kuyidagicha belgilanadi. Masalan, M- $6_3/3$. 10V₂ demak , M-motor moyligini, 6-yopishkoklik sinfi (- 18^0 S da yopishkokligi 10400 mm/s), 3-kuyuklashtirilgan prisadka kushilganligini, xamda kishki ekanligini, V-moy urta aylanishli dvigatellar uchun muljallanganligini, 2-esa dizel dvigatellari uchunligini bildiradi.

Agarda belgilangan markadagi moy bulmasa, u xolda dvigatelga undan yopishkokligi kam bo‘lgan moy ishlatish mumkin, ammo moy almashtirish muddati 2 marta kamaytiriladi.

Dizel dvigatellarida kuyidagi 7.1-jadvalda keltirilgan 6-ta markadagi moy ishlatiladi.

Dizel motor moylarining asosiy kursatkichlari

Kursatkichlar	Moylarning asosiy birliklari					
	M-8V ₂	M-10V ₂	M-8 G ₂	M- G ₂ 10	M-8G ₂₌	M-10G ₂₌
Kinematik yopishkoklik, 100^0S da mm^2/s Yopishkoklik indeksi Zolalar, kipi bilan% Ishkor soni, kipi bilan% 3,5	$8\pm0,5$ 90 1,30 3,5	$11\pm0,5$ 90 1,30 3,5	$8\pm0,5$ 90 1,65 6,0	$11\pm0,5$ 90 1,65 6,0	$8\pm0,5$ 95 1,15 6,0	$11\pm0,5$ 90 1,15 6,0
Yuvish xususiyati (ball kursatkichda) Xarorati, 0Sda kaynash (eng kamida) Kuyuklashishi, kipi bilan	1,0 200 -25	1,0 205 -15	1,0 200 -25	1,0 205 -15	0,5 200 -30	0,5 205 -15

Karbyuratorli dvigatellar motor moylarining asosiy kursatkichlari

Kursatkichlар	Moylarning birliklari va markasi					
	M-8A	M-8B ₁	M-8V ₁	M-8G ₁	M-B ₃ /10G ₁	M-12G ₁
Kinematik yepishkoklik, 100 ⁰ S da kупи bilan 0 ⁰ Sda	8±0,5	8±0,5	8±0,5	8±0,5	10±0,5	10±0,5
Mexanik zarrachalar mikdori, kui bilan %	1200	1200	1200	-	1000	-
Kuyuklashish xarorati, 0 ⁰ S, kупи bilan	0,015	0,015	0,015	0,015	0,015	0,015
Mis plastinkada karroziyalanish, g/m ² , kупи bilan	-25	-25	-25	-30	-32	-20
Yuvish xususiyati (ballarda)	8	10	10	bul	may	di
Termik oksidlanishga chidamliligi 250 ⁰ S da kamida	1,5	1,0	0,5	0,5	0,5	0,5
Ishkor soni, KON/g						
Zolalar, %		-	-	50	40	20
Sulfat zolalari%	1,2	3,4	4,0	8,5	10,5	8,5
Aktiv elementlar mikdori, (massada)%	0,45	-	-	-	-	-
Kalsiy						
Bariy						
Fosfor		0,27	-	-	-	-
Rux	0,27	0,27	-	-	-	-
Zichligi 20 ⁰ S da g/sm ³ kупи bilan	0,026	0,06	0,09	0,10	0,10	0,10
	0,02	0,05	0,09	0,10	0,10	0,10
Kaynash xarorati 0 ⁰ S (eng kamida)	0,900 200	0,900 200	0,900 200	0,900 210	0,900 210	0,900 220

M-8V va M-10V markadagi moylar oltingugurtli neft koldigidan olinib, selektiv tozalanadi. Ularning tarkibiga yuvuvchi, oksidlanishaga, yejilishga, kupiklanishga karshi prisadkalar kushiladi.

M-8G va M-10G oldingi guruxdagi moylardan xisoblanadi, ammo tarkibiga kushimcha kup funksiyani bajaruvchi prisadkalar kushilib, katta aylanishli dvigatellar uchun ishlatishga muljallangan.

Shuningdek, M-8 G₂ k, M-10 G₂ k markali moylar xam oltingugurtli neft koldigidan olinib, tarkibiga kushimcha (k-kompozitsiya) foyda beradigan prisadkalar kushiladi. Shuningdek, kichik aylanishli dizel dvigatellar uchun A va T markali moylar ishlab chikariladi.

Bu moylar juda katta yopishkoklik ($62\dots68 \text{ mm}^2/\text{s}$ 50^0S xaroratda) xamda yukori bulmagan kuyuklashish xususiyatiga ega.

Karbyuratorli dvigatellarda xam 6-ta markadagi (A, B, V va G) motor moylari ishlatilib, ularning asosiy kursatkichlari kuyidagicha.

M-8A-moyi oltingugurtli neftdan olinib, tarkibiga oz mikdorda yuvuvchi va oksidlanishga karshi prisadkalar kushilib oddiy avtomobillarda ishlatiladi.

M-8B₁-moy selektiv tozalangan bulib, tarkibiga xar-xil, asosan sulfonat va fosfatli prisadkalar kushiladi.

M-8V₁-barcha mavsumli bulib tarkibiga yukori yuvuvchi va oksidlanishga karshi prisadkalar kushilgan. Bu moy ishlatilganda dvigatelda smola va laklar kam buladi, yukori va pastki xaroratlarda xam bir xil ishlaydi.

M-8G₁, M-6/310G₁, M-12G markadagi moylarda foydali xar-xil prisadkalar kushilgan bulib, ular yaxshi yepishkoklikga ega.

Kishlok xujalik ishlarini bajarishda maxsus samolet va vertolyotlarda foydalilaniladi. Ular ogir sharoitda ishlatilishi sababli foydalilaniladigan moylar yukori yopishkoklikka, yaxshi moylash xususiyatga, issiklikda oksidlanishga chidamli bulishi kerak. Buning uchun uchta markada MS-14 va MS-20 selektiv tozalangan, xamda MK-22 kislota-kontaktli, tozalangan moylar ishlatiladi. Ularning asosiy kursatkichlari kuyidagicha.

7.3-jadval

Aviatsiya moylarining asosiy kursatkichlari

Kursatkichlari	MS-14	MS-20	MS-22
Yopishkoklik, mm^2/s 100^0Sda	14	20	222
Ishkor soni, mg, KON/g	0,25	0,03	0,10
Zolalar,% kipi bilan	0,003	0,003	0,004
Kaynash xarorati ^0S , kipi bilan	220	270	250

Dvigatel detallari yangiligida yoki remont kilingandan keyin, ularning yuzasi notejis buladi. Shuning uchun, notejisliklarni yukotish maksadida dvigatellar sinovdan utkaziladi.

Sinash natijasida detallar yuzasidagi notejisliklar ketadi, dvigateling zurikib ishlashi kamayadi, kizimaydi.

Shuning uchun, dvigatellarni sinashda maxsus moylardan foydalaniladi.

Bu moylar yaxshi sovitish, surilish, xaydalish xususiyatiga va yetarli darajada yopishkoklikga ega bulishi kerak.

Sinash uchun chikarilgan OM-2 (obkot maslo) moyi DS-8 moyi asosida olinib, uning tarkibiga 2,5% oltingugurtli diproksid, 2% kupiklanishga karshi PMS-200A pridkalar kushilgan buladi. Bunday moydan foydalanishda oltingugurt yuzalarga ta'sir kilib, sulfid xosil kiladi, natijada yuzalardagi notekisliklar tez yukoladi.

Shuningdek, zavodlarda sinovdan utkazilayotgan dvigatellarning Yonilg‘isiga xam ALP-2 markali prisadka 2,5% gacha kushib ishlatiladi.

7.2. Motor moylarining ishlatilish davomida sifatining uzgarishi

Motor moylari ishlatilishi davomida uning asosiy texnik kursatkichlari yemonlashib boradi.

Bunga kuyidagi asosiy faktorlar ta'sir kiladi.

I Dvigatelda motor moylarining kullanishda ishlash xarakteristikasi.

Bu kursatkich asosan moylarning xaydalishi natijasida uzi bilan issiklikni olib ketishiga boglik buladi. Bunga esa, dvigatelning silindrini effektiv bosimi, porshenning xarakat tezligi, tirsakli valning aylanishlar soni, taktlilik soni, yenganda Yonilg‘ining beradigan issikligi, sistemada moyning aylanishlar soni boglik buladi.

Buni baxolaydigan kursatkich moyning kuchlanish koeffitsiyenti deyilib, 1 min davomida 11 moyning sistemaga xaydash uchun ketadigan kuvvat bilan ulchanadi.

$$\varphi_m = N_e / Qh$$

Bu yerda N_e -dvigatelning efektiv kuvvati, kVt

Qh -moy nasosining xaydashi, l/min.

Bu birlik turbonadduvli dvigatellarda 2,54 ga teng bulsa, oddiy dvigatellarda 1,2...1,5 urtasida buladi. Bundan shunday xulosa kelib chikadiki, φ_m -ning kiymati kancha katta bulsa, bunday dvigatellarda sifati yukori bo‘lgan moylar ishlatilishi zarur buladi.

II Moylarning ishlash muddatining uning sifatiga ta'siri.

Moylar ishlatilishi natijasida asta-sekinlik bilan uning sifati yomonlasha boshlaydi, kiziydi, oksidlanadi kuyib atmosferaga chikib ketadi.

Tajribalar shuni kursatadiki moylar dvigatelda 840 soatdan kup ishlatilsa foya bermaydi. Shuning uchun, karterdagagi moy belgilangan satxda turgan bulsa 700...800 soat ichida almashtirish kerak buladi.

III. Moylarni yangilab turish.

Dvigatellar ishlashi natijasida karterdagi moylar sizib tushishi, buglanishi, parlanib chikib ketishi natijasida kamayadi. Shuning uchun, kartarga moy kuyib turishga to‘g‘ri keladi.

Kishlok xujalik ishlarida ishlataladigan traktorlarda bu birlik 150...300 g/soat-gacha yetishi mumkin.

Demak, moylar almashtirish muddatigacha bir-kancha marta yangilanadi, ammo bu narsa yaxshi foyda bermaydi.

IV. Moylarning sifatini uzgarishiga moy tozalagich kurilmalarining urni.

Motor moylarining ifloslanishi dvigatelning detallarining tez yejilishiga, kuyindi va lak xosil bulishiga, porshen xalkalarining kokslanishiga, moy utkazgich tur va trubkalarning tikilib kolishiga sabab buladi.

Bunga asosan, organik (smolali-asfalt birikmalar, uglerod zarrachalari, xamda oksidlangan uglevodorodlar) va organik bulmagan (dvigatel detallarining yejilishidan xosil bo‘lgan zarrachalar, ishslash muddati tugagan prisadka koldiklari, moyga tushuvchi chang, kum, suvlar) moddalar kiradi.

Shuning uchun, moy tozalagich kurilmalarini uz vaktida tozalab turish kerak.

V.Dvigatellar ishlaganda moylarning fizika-ximiyaviy xususiyatlarining uzgarishi.

a) Mexanik zarrachalarning mikdori.

Dvigatellarga mexanik zarrachalar asosan birinchi 60...120 soat ishlashi davomida intensiv kupayadi, keyinchalik esa bir-xil xolatda buladi. Bunga sabab, moyning tarkibidagi tez oksidlanuvchi uglevodorodlar moylash sistemasining barcha kismida oksidlanadi.

b) Moylarning yopishkokligi dvigatelning 60...180 soat ishlashi davomida uzgaradi, keyin almashtirish muddatigacha bir-xil xolatda turadi. Bunga sabab moydagi tez buglanuvchi, kaynovchi moddalarning oksidlanishidir.

v) Ishkorlanish xam moyning bиринчи 60...120 soat ishlashi давомида uzgaradi, keyin bir-xil xolatda buladi. Bunga xam turgun bulmagan uglevodorodlar ta’sir kiladi.

g) Oksidlovchi moddalar mikdori.

Smolalar moyda uning ishlashining dastlabki davrida kupayadi, keyin esa kamayadi, sababi smolalar asfaltga aylanadi, shuningdek karbon va karbonadlar kupayadi.

VI. Dvigatellarning motoresursini motor moylaridagi detallarning ishkalanishdan xosil bo‘lgan temirning mikdoriga karab belgilash mumkin. Buning uchun xar-xil metodlardan foydalaniladi.

VII. Mashinalarni ekspluatatsiya kilish davomida uning texnik tejamkorligini oshirish yellari. Dvigatellarning tejamkorligini oshirish uchun kuyidagi asosiy texnik talablar bajarilishi zarur.

1) Belgilangan markadagi moydan foydalanish.

- 2) Mashinalarni saklashda va Yonilg'i kuyish vaktida isrof bulishini yukotish.
- 3) Moylarni doimiy karterga kuyib turishni kamaytirish.
- 4) Moylarni magnitli tozalash uslubidan foydalanish (moylash sistemasiga magnit kuyish).
- 5) Ishlab turgan motor moylariga prisadkalar kushib turish.

Traktor va avtomobilarning uzatmalar kutisini, asosiy va bort mexanizmini, taksimlash kutisini, defferensial, rul mexanizmlaridagi silindrik, konussimon, chervyakli va gipoid uzatmalarni moylash uchun transmissiya moylaridan foydalaniadi. Tishli uzatmalar katta solishtirma bosim ostida ishlaydi. Konussimon va chervyakli tishli uzatmalarda shesternya tishlariga 1500...2000 MPa, gipoid uzatmalarda 3000...4000 MPa bosim tushadi. Shuningdek, xarorat xam transmissiya agregatlarida 125^0S gacha kutariladi.

Shuningdek traktorlar, kombaynlar bizning sharoitimizda yoz oylarida $50...60^0S$ xaroratda ishlaydi. Tishli uzatmalar sachratib va bosim ostida moylanadi.

7.3. Transmissiya moylari, xossalari, belgilanishi

Transmissiya moylari kuyidagi texnik talablarga javob berishi kerak;

- tishlarning ishchi yuzalarida yeyilishni yukotishi yoki kamaytirishi;
- tishli uzatmalarda ishkalanishni kamaytirib, f.i.k. ni oshirishi;
- uzidan issiklikni yaxshi utkazishi, yuzalardan yeyilish natijasida xosil bo'lgan zarrachalarni yuvib, tozalab turishi;
- detallar yuzasini korroziyanishdan saklashi;
- kupiklanmasligi;
- uzining birlamchi xolatini uzok vakt saklab turishi;
- mashinalarni xar-kanday xaroratda xam uz urnidan sekinlik bilan xarakat kilishini ta'minlashi kerak.

Bu kursatkichlarni asosiy talabi shuki, moylar kerakli yepishkoklikka ega bulishi, yaxlash xarorati, korroziyanishi, mexanik zarrachalar bulishi, oksidlanishi talablarga javob berishi lozim.

Shuningdek, transmissiya moylari kuyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak.

- 1) Yeyilishga va tirnalishga karshilik xususiyati.

Buning uchun transmissiya moylariga kuyidagi prisadkalar kushiladi. L3-23K-dibutilksantat etileni tarkibida 38...41% oltingugurt, OTP-oltingugurtlashtirilgan tetramer propileni, asosan olefin polimeridan olinib, tarkibida 20% gacha oltingugurt buladi.

Transmissiya moylari kup smolali neft koldigidan olinadi.

Bu prisadkalar moyga 5% gacha kushiladi.

- 2) Yopishkoklik-xarorat xususiyati.

Transmissiya moylari kup smolali neft koldigidan olinganligi sababli, xarorat pasayishi bilan, ularning kuyuklashish xususiyati kupayadi. Natijada uning karshiligini yengish uchun kup kuvvat sarf buladi, eng asosiysi mashinani urnidan

kuzgatish vaktida buladi. Shuning uchun bu xolatni yaxshilash maksadida 0,2...0,5% AZNII prisadkasi kushiladi.

- 3) Boshka neft maxsulotlariga karaganda transmissiya moylarida oltingugurt bulishi yaxshi natija beradi sababi, oltingugurt yeyilishga va ternalishga karshilik kursatadi. Shuningdek, bu moylarda suv va yeyuvchi (obraziv) moddalar bulmasligi kerak.

Transmissiya moylari 8 ta markada: TSp-14,5, TE-15, TSp-10, TSp-14, TSp-15K, Tap-15V, TSp-14gip va TAD-17i ishlab chikariladi.

Ishlatish sharoitiga karab transmissiya moylari 5-ta guruxga bulinadi.

Transmissiya moylarining guruxlari

